

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT
MILLIY INSTITUTI

TA'LIM SIFATI MONITORINGI

o'quv qo'llanma



Z.Sh.Tursinova

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT
MILLIY INSTITUTI

Tursinova Zoxida Sharabidinovna

TA'LIM SIFATI MONITORINGI
o'quv qo'llanma

(“Ta'lismenejmenti” magistratura mutaxassisligi
talabalari va bo'lajak menejerlar uchun)

UO‘Q

KBK

B

O‘quv qo‘llanma A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Ilmiy Kengashining 2025-yil 16-iyulda bo‘lib o‘tgan №7-son majlisida ko‘rib chiqildi va chop etishga tavsiya qilindi.

Tursinova Z.Sh.

B Ta’lim sifati monitoringi [Matn]: o‘quv qo‘llanma/Z.Sh.Tursinova. – Toshkent: 2025. - 133b.

ISBN

Tuzuvchi:

Z.Sh.Tursinova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti

Taqrizchilar:

A.A.Iminoxunov iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor v.b.

Y.Shukurov pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

D.Yusupova pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Ushbu o‘quv qo‘llanma “Ta’lim menejmenti” magistratura mutaxassisligi talabalari va bo‘lajak menejerlar uchun “Ta’lim sifati monitoringi” fanidan ta’lim tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlardan kelib chiqqan holda tayyorlanganligi, unda ta’lim sifatini baholash va monitoring qilishning nazariy, metodologik asoslari, yurtimizda va dunyoda mavjud bo‘lgan tizimlar haqida ma’lumot berilgan. O‘zbekistonda ta’lim sifatini nazorat qilishning me’yoriy-huquqiy asoslari, shuningdek, ushbu jarayonlarning ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyati, pedagoglarning mahorati va pedagogik mahoratni baholash jarayoni, doimiy o‘z ustida ishlashi, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, raqamli texnologiyalardan foydalanib pedagoglar va ta’lim tashkilotlari xodimlarining uzluksiz malakasini oshirib borish zarurati masalalari yoritilgan.

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Ta’lim menejmenti” kafedrasining 2025-yil 13-iyun №6-son majlisida muhokama qilindi va institut Ilmiy Kengashida ko‘rib chiqish uchun tavsiya qilindi.

ISBN

©Z.Sh.Tursinova, 2025

MUNDARIJA

KIRISH.....4

I BOB. TA'LIM SIFATI MONITORINGINING NAZARIY ASOSLARI

- | | |
|--|----|
| 1.1 Ta'lism sifati monitoringining me'yoriy-huquqiy asoslari..... | 7 |
| 1.2 Ta'lism sifati monitoringining nazariy-metodologik asoslari..... | 19 |
| 1.3 Ta'lism sifatini ta'minlash borasida davlat kafolatlari..... | 37 |

II BOB. TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH JARAYONI

- | | |
|---|----|
| 2.1 Ta'lism sifatini boshqarish tushunchasi. | 52 |
| 2.2 Ta'lism sifatini nazorat qilish va baholash. | 66 |
| 2.3 Ta'lism muassasasi faoliyatini baholash. | 82 |

III BOB. TA'LIM SIFATINI BAHOLASHNI RAQAMLASHTIRISH

ZAMON TALABI

- | | |
|---|-----|
| 3.1 Ta'lism sifatini nazorat qilish va baholashning elektron tizimi. | 100 |
| 3.2 Ta'lism sifatini baholashning xalqaro tizimi..... | 116 |

XULOSA.....126

GLOSSARIY127

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....132

KIRISH

“*Taraqqiyotning tamaltoshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir*”.
Sh.Mirziyoyev

So‘nggi o‘n yilliklarda ta’lim tizimi butun dunyoda sezilarli darajada rivojlandi. Ta’lim sifatini monitoring qilish va baholash soha samaradorligini ta’minlashda muhim omilga aylanib, o‘quv jarayonlarining yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Ta’lim sifatini nazorat qilish, tizimli ravishda o‘quvchilarning bilim darajasini, o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini va ta’lim muassasalarining samaradorligini o‘lchashga qaratilgan jarayon sifatida kundan kunga muhim ahamiyat kasb etayotir.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonimizda barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda yosh avlodning sifatli ta’lim olishi, o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishi uchun keng imkoniyatlar yaratilyapti.

Avvalo, zamonaviy texnologiyalar ta’lim tizimiga jadal joriy etilmoqda. Bugun o‘quvchilar turli elektron platformalar orqali bilim olishlari, testlar yechishlari, dunyo miqyosidagi kurslarda qatnashishlari mumkin. Internet orqali o‘quv videodarslar, interaktiv mashqlar, virtual laboratoriylar taqdim etilayotgani katta qulaylik yaratilayotir.

Shuningdek, davlatimiz tomonidan chet tillarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maktablarda ingliz, rus, nemis, koreys, xitoy va boshqa tillar chuqurlashtirib o‘qitilyapti. Yana bir muhim jihat — xorijiy oliygohlar filiallarining ochilishi. Masalan, bugungi kunda Toshkent shahrida Webster, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Turin politexnika universiteti va boshqa nufuzli universitetlarning filiallari faoliyat yuritmoqda. Bu yoshlarimizga chet elga chiqmasdan turib, yuqori sifatli ta’lim olish imkonini beradi.

Iqtidorli va tashabbuskor yoshlar davlat tomonidan stipendiyalar, grantlar, tanlovlar orqali muntazam rag‘batlantirib borilmoqda. “El-yurt umidi”

jamg‘armasi orqali chet elda o‘qish imkoniyati berilayotgani, “Yoshlar akademiyasi”, “Yoshlar texnoparki” kabi loyihalar orqali innovatsion g‘oyalarga ko‘mak ko‘rsatilayotgani — buning yorqin misolidir.

Shuningdek, nogironligi bo‘lgan bolalar uchun ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Maxsus o‘quv dasturlari, brayl yozuvi, nutq sintezatorlari kabi zamonaviy texnologiyalar orqali ular ham ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Pedagog o‘qituvchilar tomonidan ta’limni samarali tashkil qilish uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

Ushbu qo‘llanma “Ta’lim sifati monitoringi” fanidan o‘quv qo‘llanma sifatida taqdim etiladi. Unda ta’lim sifatini baholash va monitoring qilishning nazariy, metodologik asoslari, yurtimizda va dunyoda mavjud bo‘lgan tizimlar haqida to‘liq ma’lumot beriladi. O‘zbekistonda ta’lim sifatini nazorat qilishning me’yoriy-huquqiy asoslari, shuningdek, bu jarayonlar qanday qilib ta’lim tizimining sifatini oshirishga yordam berayotgani o‘rganiladi.

Prezident farmonlari ta’lim sifatini oshirish va ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lida katta ahamiyatga ega. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli farmoni (“Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”) 2017-yilda qabul qilindi va ta’lim tizimining samaradorligini oshirish uchun strategik yo‘nalishlarni belgilab berdi. Shuningdek, PF-60-son farmoni (28.01.2022) va PQ-470-son qarori (13.10.2022) ta’lim tizimida sifatni yaxshilash, ta’lim muassasalarini xalqaro standartlarga moslashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish maqsadida yangi yondashuvlarni o‘z ichiga olgan.

Qo‘llanmada ta’lim sifatini boshqarish, ta’lim muassasalarining reytingini aniqlash, elektron tizimlarda monitoring o‘tkazish va xalqaro tizimlar orqali ta’limni baholashga oid tavsiyalar beriladi. Ta’lim sifatini ta’minlashda raqamli texnologiyalar va metodik yondashuvlarning roli ham ko‘rib chiqiladi. Bu qo‘llanma ta’lim tizimini boshqaruvchi mutaxassislar, o‘qituvchilar, va ta’lim tizimi bilan shug‘ullanuvchi boshqa mutaxassislar uchun samarali qo‘llanma bo‘lishi kutilmoqda.

Shu maqsadda, ushbu qo'llanma nafaqat ta'lim sohasida ishlovchi mutaxassislar uchun, balki ta'lim tizimida sifatni yaxshilashga qaratilgan amaliy ishlarni olib borayotganlar uchun ham zarur qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

I BOB. TA'LIM SIFATI MONITORINGINING NAZARIY ASOSLARI

1.1 TA'LIM SIFATI MONITORINGINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

Reja:

1. Ta'lif sifati tushunchasi va uning ahamiyati.
2. Ta'lif sifatini monitoring qilish.
3. O'zbekiston Respublikasida ta'lif sifati monitoringini tartibga soluvchi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar.
4. Ta'lif sifati monitoringida ishtirok etuvchi tashkilotlar va ularning vakolatlari.
5. Ta'lif sifati monitoringini yanada takomillashtirish istiqbollari.

Tayanch so'zlar: *Ta'lif sifati, monitoring, me'yoriy-huquqiy asoslar, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, ta'lif sifatini baholash, Davlat inspeksiyasi, ichki va tashqi monitoring, ta'lif tizimini isloh qilish, xalqaro standartlar.*

Ta'lif sifati — bu pedagogik jarayonning samaradorligi, mazmuni va metodlarini o'quvchilar tomonidan egallangan ilmiy bilim va ko'nikmalar bilan uyg'unligini ifodalovchi kompleks tushunchadir. Bunday tushunchada, avvalo, ta'lif oluvchi bilim, malaka va kompetensiyalar darajasida belgilangan standartlarga erishishi nazarda tutiladi;

ikkinchidan, ta'lif muhitining texnik, didaktik va interpozitsional jihatlari hisobga olinadi;

uchinchidan, metod-texnologik yondashuvlarning amaliy samara ko'rsatishi muhimdir.

Ta'lif sifati — bu ta'lif tizimi foydalanuvchilari (o'quvchilar) tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar darajasini,

shuningdek, o‘qitish jarayonlarining mazmuni, metodlari va ta’lim muhitining talab darajasini baholaydigan kompleks tushunchadir.

Mazkur tushuncha o‘zida ta’lim jarayonining tashkil etilishi, uning monitoringi hamda natijalarini tahlil qilishni o‘zaro bog‘lagan holda uni sifatli va samarali qilishga qaratilgan tizimli yondashuvni ifodalaydi. Shu bois ta’lim sifati monitoringi — bu faqat ta’lim oluvchilarning yakuniy natijalarini baholash emas, balki:

1. **Bosqichma-bosqich baholash** (formativ va summativ);
2. **Jarayon monitoringi** (metodik va didaktik samaradorlik);
3. **Ta’lim muhitini baholash** (shart-sharoit, texnika va resurslar);
4. **Kadrlar malakasi va doimiy takomillashtirish;**
5. **Statistik va solishtirma tahlillar** (davlat standartlari va xalqaro indikatorlar asosida) majmuasidan tashkil topadi.

Monitoring — bu ta’lim jarayonining barcha bosqichlari va ishtirokchilarini muntazam ravishda kuzatish, tahlil qilish va baholash orqali uning holati, dinamikasi va samaradorligini aniqlashga xizmat qiluvchi uzlucksiz va tizimli jarayondir. Monitoring — ta’lim sifatini boshqarish vositasi bo‘lib, u nafaqat mavjud holatni o‘rganadi, balki kelajakdagi qarorlar uchun zarur bo‘lgan axborotlarni ham shakllantiradi. Zamonaviy ta’lim tizimlarida sifatni faqat nazariy ko‘rsatkichlar asosida emas, balki amaliy mezonlar, baholash vositalari va tahliliy ko‘rsatkichlar asosida baholash talab etiladi. Bu jarayon esa ta’lim sifatini monitoring qilish tizimi orqali amalga oshiriladi.

Monitoring — bu doimiy, tizimli va ilmiy asoslangan baholash bo‘lib, u orqali ta’lim jarayonining ijobiy va salbiy tomonlari aniqlanadi, ularni rivojlantirish yoki tuzatish strategiyalari ishlab chiqiladi.



Monitoringni asosiy vazifalariga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ta’lim oluvchilarning bilim va ko‘nikmalarini real baholash – monitoring orqali o‘quvchilarning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, tanqidiy fikrlash va

muammo hal qilish qobiliyatlari chuqur tahlil qilinadi. Bu jarayon orqali o‘quvchilarning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi va individual yondashuv asosida ta’lim berish strategiyasi shakllantiriladi. Masalan, test natijalari, diagnostik tahlillar, portfoliolar, baholash mezonlari shular jumlasiga kiradi.

O‘quv rejalari va dasturlarining amaliy natijalarga ta’sirini tahlil qilish - har qanday o‘quv dasturi va rejaning maqsadi – o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishdir. Monitoring orqali mazkur dasturlar real hayotda qanday natija berayotgani, ya’ni bitiruvchilar mehnat bozoriga qanchalik tayyor ekani, ularning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasi, ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish qobiliyati kabi holatlar o‘rganiladi. Shuningdek, dasturlarning zamonaviy talablar bilan qanchalik mos ekaniga baho beriladi.

Pedagogik kadrlarning metodik saviyasi va faoliyat samaradorligini aniqlash – ta’lim sifati ustozlarning bilim, kasbiy malaka va pedagogik yondashuvlariga bevosita bog‘liq. Monitoring orqali o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi, dars berish uslubi, innovatsion texnologiyalarni qo‘llay olish darajasi, o‘quvchilar bilan ishlash samaradorligi baholanadi. Bu asosida ustozlarga malaka oshirish, qayta tayyorlash yoki metodik ko‘mak ko‘rsatish choralarini belgilash mumkin bo‘ladi. Ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi va o‘quv sharoitlarini monitoring qilish — zamonaviy ta’lim muassasasi — bu faqat darslik va sinf stoli emas, balki kompyuter sinflari, laboratoriylar, sport zallari, kutubxonalar, internet tarmog‘i, xavfsizlik tizimi va boshqa infratuzilmalar bilan to‘liq jihozlangan muhitdir. Monitoring jarayonida bu sharoitlarning holati, foydalanish darajasi va ularning o‘quv jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi. Shu asosda kerakli moliyaviy va tashkiliy choralar belgilanadi.

Davlat ta’lim standartlariga muvofiqlikni baholash — har bir ta’lim bosqichining o‘ziga xos standartlari mavjud. Ta’lim monitoringining muhim vazifalaridan biri — o‘quv jarayonining aynan shu standartlarga mosligini aniqlashdir. Bu o‘quv dasturi mazmuni, yuklama miqdori, o‘qitish uslublari va o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilayotgan bilim darajasiga qarab amalga

oshiriladi. Davlat standartlariga muvofiqlik — ta’lim sifatining kafolati hisoblanadi.

Ta’lim monitoringi nafaqat holatni kuzatish, balki ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha aniq choralar belgilash, mas’ullikni oshirish va sifatni kafolatlash vositasidir. Uning to‘g‘ri va tizimli yo‘lga qo‘yilishi natijasida ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari — o‘quvchilar, o‘qituvchilar va rahbarlarning faoliyati yaxshilanadi, natijada zamonaviy va raqobatbardosh ta’lim tizimi shakllanadi.

Monitoring tizimi nafaqat statistik ma’lumot yig‘ish, balki tizimli tahlil, prognozlash, solishtirish va takliflar ishlab chiqish kabi funksiyalarni ham bajaradi. U ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qilishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, monitoring orqali aniqlangan muammo va kamchiliklar asosida davlat siyosatini optimallashtirish, ta’limga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, xalqaro standartlarga mos innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkoniyatlari yuzaga keladi.



Ayni paytda zamonaviy monitoring tizimlari faqatgina yakuniy natijalarni emas, balki butun ta’lim jarayonining dinamikasini, ya’ni o‘quvchilarning rivojlanish sur’ati, o‘qitish metodlarining samaradorligi, didaktik materiallarning mosligi, o‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi interaktivlik darajasini ham baholaydi.

Ta’lim sifatini monitoring qilish faoliyatining konsepsiysi, huquqiy asosi va institutsional mexanizmlari mavjud bo‘lmasa, bu jarayon yuzaki va tasodifiy holga aylanib qoladi. Shu sababli har bir mamlakat, jumladan, O‘zbekiston Respublikasida bu yo‘nalish puxta me’yoriy-huquqiy asoslar, davlat siyosati va maxsus tashkilotlar faoliyati orqali tizimlashtirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifati monitoringini tartibga soluvchi asosiy me’yoriy-huquqiy hujjatlar o‘zi ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari” (2016–2030-yillar) 2015-yil 25-sentabr sanasida BMT 70-Bosh Assambleyasida qabul qilingan bo‘lib, unda 17 ta umumiy maqsad va 169 ta vazifa belgilangan. Uning bosh g‘oyasi esa: “*Sifatli ta’limni ta’minlash va hammaga teng imkoniyatlar yaratish*”dan iborat. Ushbu qarorning O‘zbekistonga ta’siri ta’limda inklyuzivlik va tenglikni mustahkamlash, har bir bosqichda sifat monitoringini joriy qilish va yoshlarga zamonaviy bilim va ko‘nikmalar berishga intilish kabilarni o‘z ichiga oladi.

“Barqaror rivojlanish maqsadlari” “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi bilan o‘zaro bog‘liqlikda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan. Ushbu hujjatning asosiy mazmuni BMT maqsadlarini milliy sharoitga moslashtirish, barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlarini monitoring qilish tizimini yaratish, har bir vazirlik, xususan, ta’lim vazirliklariga muayyan majburiyatlar yuklashdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni. Ushbu hujjat O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimining huquqiy asoslari, tamoyillari va sifat nazorati tizimini belgilaydi. Ushbu qonunning 11-moddasida “Ta’lim sifatini oshirish va uni nazorat qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi” sifatida belgilanadi. Qonunda davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan tashqi va ichki monitoring mexanizmlariga urg‘u beriladi. Ta’lim sifati bo‘yicha jamoatchilikka ochiq hisobotlar taqdim etilishi shartligi belgilangan. Bu qonun monitoringni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yishga huquqiy asos yaratadi va uni barcha ta’lim bosqichlariga tatbiq etishni kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da

belgilangan asosiy yo‘nalishlar va maqsadlar, keyingi besh yilda yoshlarning hayotidagi o‘rni va ta’siri bilan bevosita bog‘liq. Taraqqiyot strategiyasida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha bir necha vazifalar belgilangan bo‘lib, jumladan, o‘rta ta’lim tizimini zamon talablariga moslashtirish, umumiyligi o‘rta ta’lim muassasalarida darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirish, yangi o‘quv o‘rinlari yaratilsin va yana bir qator vazifalar belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 5-maydagisi “Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-76-son Farmoni. Ushbu hujjatning asosiy maqsadi ta’lim tashkilotlarida o‘quv va ilmiy-tadqiqot jarayonlarini xalqaro standartlar asosida baholash tizimini joriy etish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirishdir. Farmonda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzurida Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligini tashkil etish vazifasi ham belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-fevraldagagi “Maktabgacha va umumiyligi o‘rta ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish hamda ta’lim sifati monitoringini amalga oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 91-son qarori. Ushbu qaror maktabgacha hamda umumiyligi o‘rta ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish jarayonini Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bilan kelishilgan holda amalga oshirilishini nazarda tutadi hamda bu jarayondagi asosiy prinsiplar sifatida – mustaqillik, oshkoraliq, xolislik, shaffoflik, davriylik va majburiylikni ilgari suradi.

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagagi “Pedagogning maqomi to‘g‘risida” O‘RQ-901-son Qonuni. Ushbu hujjatda “pedagog” tushunchasiga berilgan ta’rifdan tortib, pedagoglarning huquqlari, majburiyatları va ular faoliyatining asosiy kafolatlari haqida so‘z boradi. Amal qilish doirasi jihatidan mamlakatimizdagi ta’lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi pedagoglarga nisbatan tatbiq etiladi. Pedagoglarning huquqlari qismida, ularning pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishi, o‘qitish hamda tarbiya ishlarini erkin

tanlashi va ulardan foydalanishi, ta’lim jarayonining deyarli barcha bosqichlarida ishtirok etishi va shu kabilar haqida so‘z boradi.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 PF-4947). Ushbu hujjat O‘zbekiston Respublikasini besh yillik bosqichda har tomonlama rivojlantirish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh qilish bo‘yicha keng ko‘lami vazifalarni belgilab bergan. Farmon asosida 2017 – 2021 yillarga mo‘ljallangan “*Harakatlar strategiyasi*” ishlab chiqilgan bo‘lib, u 5 ta ustuvor yo‘nalishni o‘z ichiga oladi. Ular orasida ta’lim tizimini rivojlantirish va modernizatsiya qilish alohida o‘rin egallaydi.

Harakatlar strategiyasining to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishi — ijtimoiy sohani rivojlantirish doirasida ta’lim sohasiga oid quyidagi muhim vazifalar belgilangan:

- ✓ Ta’lim tizimini raqamlashtirish, elektron boshqaruv tizimlari va axborot texnologiyalarini keng joriy etish;
- ✓ Ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik va innovatsion yondashuvlarni joriy qilish;
- ✓ Ta’lim muassasalarini xalqaro reytinglarda ishtirok etishga tayyorlash, akkreditatsiyadan o‘tkazish;
- ✓ O‘qituvchilar va pedagog xodimlarning kasbiy malakasini oshirish tizimini takomillashtirish;
- ✓ Ta’lim sifati ustidan samarali monitoring va baholash tizimlarini yaratish.

Shuningdek, strategiyada ta’limda oshkorlik, shaffoflik va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini kuchaytirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda kadrlar tayyorlash sifatini milliy va xalqaro mezonlarga moslashtirish zarurligi ta’kidlangan. Mazkur Farmon va unga muvofiq qabul qilingan Harakatlar strategiyasi, O‘zbekistonda ta’lim sifatini tubdan oshirish, sifat monitoringini institutsional asosda isloh qilish hamda ta’lim sohasini jahon standartlariga yaqinlashtirish uchun asosiy huquqiy zamin bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “*Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*”gi Farmoni (PF-5198-son 30.09.2017). Ushbu hujjat orqali maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uning samaradorligini oshirish va sifat monitoringini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Farmonning asosiy maqsadi — maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va ta’lim olish huquqini to‘liq ta’minlash, ularning salohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi raqamli va zamonaviy ta’lim muhitini yaratishdan iboratdir.



Maktabgacha ta’lim tizimi birinchi marotaba alohida e’tiborga olinib, mustaqil davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Bu orqali bolalar uchun ta’lim va tarbiya sharoitlari sifat jihatidan yaxshilanmoqda. Ushbu farmon maktabgacha ta’lim sohasini zamonaviy, sifatli va tizimli shakllantirish yo‘lida muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Unda bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi monitoring va baholash tizimlariga alohida e’tibor qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining: “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori (PQ-3775-son 05.06.2018). Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, uning sifat ko‘rsatkichlarini xalqaro darajaga olib chiqish va xalqaro reytinglarda OTMlar o‘rnini mustahkamlash bo‘yicha qabul qilgan muhim hujjalardan biridir. Qarorning asosiy maqsadi oliy ta’lim



muassasalarida ta’lim sifatini doimiy nazorat qilish tizimini shakllantirish, talabalar bilimini ob’yektiv baholash, kadrlar tayyorlashda raqobatbardoshlikni oshirish, OTMlarning xalqaro ilmiy-ta’limiy hamjamiyatga integratsiyasini kuchaytirishdan iboratdir.

Mazkur qaror oliy ta’lim muassasalarini o‘z faoliyatini tanqidiy tahlil qiluvchi, doimiy rivojlanishga intiluvchi va xalqaro talablarga javob beruvchi innovatsion va sifatli ta’lim markazlariga aylantirishni maqsad qilgan. Unda ichki monitoring, tashqi baholash, xalqaro standartlar asosida reytinglash va akkreditatsiya jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim sifati — bu ta’lim jarayonining mazmuni, metodikasi, moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati va natijalarini o‘z ichiga olgan murakkab ko‘rsatkichdir. Ta’lim sifati ustidan monitoring olib borish vazifasi esa bir qator davlat, nodavlat va xalqaro tashkilotlar zimmasiga yuklangan. Ushbu tashkilotlar o‘z vakolatlariga ko‘ra ta’lim tizimini tahlil qilish, baholash, reytinglash va



takomillashtirish uchun zarur tavsiyalar ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi. Xalqaro tashkilotlar: PISA, TIMSS, UNESCO va OECD:

PISA (Programme for International Student Assessment): 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha funksional savodxonligini baholaydi. Natijalar asosida ta’lim sifatining xalqaro darajadagi holati aniqlanadi.

TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study): 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilimini baholaydi.

UNESCO va OECD: Ta’lim tizimining rivojlanish ko‘rsatkichlari, tenglik, qamrov darajasi, innovatsion yondashuvlar, pedagogik uslublar bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi. Ushbu tashkilotlar bergen baholar O‘zbekiston ta’lim tizimini xalqaro standartlar bilan solishtirish, uning kuchli va zaif tomonlarini

ko‘rsatish imkonini beradi. Bu esa milliy monitoring tizimini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ta’lim sifati monitoringi – bu faqat nazorat vositasi emas, balki rivojlanishning poydevori hisoblanadi. Davlat inspeksiyasi, test markazi, ta’lim muassasalari va xalqaro tashkilotlar o‘zaro hamkorlikda ishlashi orqali uzluksiz, tizimli va ob’yektiv baholash mexanizmi shakllanmoqda. Bu esa O‘zbekiston ta’lim tizimining global maydondagi raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Ta’lim sifati monitoringining me’yoriy-huquqiy asoslari ta’lim tizimining sifatli va samarali ishlashini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida bu monitoringni amalga oshirish uchun ko‘plab qonunlar, farmonlar va qarorlar ishlab chiqilgan. Ushbu hujjatlar ta’lim sifatini doimiy nazorat qilish, baholash va takomillashtirish jarayonlarini tartibga soladi. Ta’lim sifati monitoringida davlat inspeksiyasi, Bilim va malakalarni baholash agentligi, ta’lim muassasalari va xalqaro tashkilotlar faol ishtiroy etib, ta’limning barcha bosqichlarida sifatni oshirishga qaratilgan tizimli ishlarni olib boradi. Kelajakda ta’lim sifatini monitoring qilish tizimini yanada takomillashtirish uchun raqamlashtirish, innovatsiyalarni joriy etish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish zarur.

Ta’lim sifatini monitoring qilish zamonaviy ta’lim tizimini boshqarish, tahlil qilish va rivojlantirishning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, uning samarali amalga oshirilishi barqaror va sifatli ta’lim muhitini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Monitoring orqali ta’lim jarayonining real holati aniqlanadi, mavjud muammolar tahlil qilinadi va ular bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifati monitoringi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, bu jarayonni tartibga soluvchi mustahkam me’yoriy-huquqiy baza yaratilgan. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Davlat ta’lim standartlari”, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar monitoring faoliyatining huquqiy asosini tashkil etadi.

Ta’lim sifati monitoringida Bilim va malakalarni baholash agentligi, Ta’lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi hamda tegishli vazirlik va idoralar ishtirok etadi. Bu tashkilotlar ta’lim muassasalarining ichki va tashqi baholashini amalgaloshirish, xalqaro standartlar asosida sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash, shuningdek, ta’lim sifati bo‘yicha ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash vazifalarini bajaradi.

Bugungi kunda ta’lim sifati monitoring tizimini yanada takomillashtirish zarurati dolzarb bo‘lib, bu borada raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, xalqaro baholash mezonlarini implementatsiya qilish, indikatorlar tizimini izchil asosda yangilab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, monitoring natijalarini tahlil qilish asosida ta’lim islohotlarini rejalshtirish va strategik qarorlar qabul qilish imkoniyati kuchaymoqda.

Umuman olganda, ta’lim sifati monitoringining me’yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ushbu faoliyatni xalqaro standartlarga muvofiq tashkil etish va samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy qilish orqali ta’lim sohasini tizimli ravishda isloq qilishga erishish mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi nashri, 2020-yil, 15-22-betlar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli Farmoni: “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, Toshkent, 2017-yil, 5-7-betlar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori: “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”, Toshkent, 2017-yil, 3-6-betlar.
4. Abdullayev S., “Ta’limda sifat nazorati va monitoring”, Toshkent, “Ilm-Ziyo”, 2021-yil, 45-60-betlar.
5. Karimova M., “Oliy ta’lim sifatini baholash tizimi”, Toshkent, “Ma’naviyat nashriyoti”, 2022-yil, 30-50-betlar.

6. UNESCO, “Ta’lim sifatini baholash va monitoring”, Parij, 2019-yil, 10-25-betlar.



Nazorat savollari:

1. Ta’lim sifati tushunchasi nimani anglatadi va u nima uchun muhim hisoblanadi?
2. Ta’lim sifati monitoringi deganda nima tushunilib, uning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. O‘zbekistonda ta’lim sifatini tartibga soluvchi asosiy qonun va qarorlarni sanab bering.
4. Ta’lim sifati monitoringida qaysi tashkilotlar ishtirok etadi va ularning asosiy vazifalari nimalar?
5. Ta’lim sifatini monitoring qilish jarayonini takomillashtirish uchun qanday takliflar berilmoqda?



Amaliy topshiriqlar:

1. Topshiriq

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning ta’lim sifatiga oid moddalarini o‘qib, ularni qisqacha mazmuniga ko‘ra guruhda muhokama qiling va xulosa chiqaring.

2. Topshiriq

O‘zingiz tanlagan biror ta’lim muassasasida ta’lim sifati monitoringi qanday amalga oshirilayotganini tahlil qiling (internet manbalari, intervyu yoki shaxsiy kuzatuv asosida).

3. Topshiriq

Xalqaro tashkilotlar (YUNESKO, OECD va b.) tomonidan ta’lim sifati bo‘yicha

tavsiyalar bilan tanishib, ulardan O‘zbekiston sharoitiga mos 2-3 ta g‘oya taklif qiling.

4. **Topshiriq**

Ta’lim sifatini baholash uchun so‘rovnoma namunasini tuzing (*o‘qituvchilar, talabalar yoki ota-onalar uchun*), uni sinov tariqasida qo‘llab ko‘ring va natijalarini tahlil qiling.

5. **Topshiriq**

Guruhga bo‘linib, ta’lim sifatini yaxshilash bo‘yicha “Strategik reja” loyihasini ishlab chiqing va uni sinf oldida taqdim qiling.

1.2 TA’LIM SIFATI MONITORINGINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Reja:

1. Monitoring tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari
2. Pedagogik jarayonda monitoringning o‘rni va funksiyalari
3. Metodologik yondashuvarlar (*tizimli, kompetensiyaviy, faoliyat yondashuvi*)
4. Monitoringda qo‘llaniladigan asosiy mezonlar va ko‘rsatkichlar
5. Monitoring metodlari va ularning tavsifi

Tayanch so‘zlar: *Monitoring, pedagogik nazorat, indikator, baholash mezonlari, metodologik yondashuv, sifat monitoring, metrik ko‘rsatkich, pedagogik tahlil.*

Monitoring atamasi ingliz tilidan olingan bo‘lib, “kuzatish, nazorat qilish, holatni tahlil qilish” degan ma’noni anglatadi. Pedagogik jarayonda monitoring bu — uzlusiz, tizimli va maqsadli ravishda olib boriladigan nazorat va baholash faoliyatidir. Ilmiy yondashuvga ko‘ra, monitoring ta’lim tizimidagi

o‘zgarishlarni aniqlash, o‘quvchilarning yutuqlari, muassasa faoliyatining samaradorligi va o‘quv dasturlarining real natijadorligini aniqlashga qaratilgan tahliliy faoliyatdir.

Monitoring, avvalo, ikki asosiy komponentni o‘z ichiga oladi:

1. Holatni kuzatish va qayd etish (diagnostika);

2. Olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va baholash (analitika).

Pedagogik monitoring — bu ta’lim jarayonini tizimli kuzatish, baholash, solishtirish va prognozlash orqali sifatni ta’minlashga xizmat qiluvchi uzluksiz jarayondir. U o‘qituvchining darsdagi faoliyatidan tortib, ta’lim muassasasining umumiy natijalarigacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab oladi.

Monitoring tizimi bir necha metodologik yondashuvlarga asoslanadi:

- ✓ **Tizimli yondashuv** — monitoringni ta’lim tizimining barcha elementlari o‘zaro bog‘liqlikda olib boriladigan tahliliy faoliyat sifatida ko‘radi.
- ✓ **Faoliyat yondashuvi** — monitoringda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati asosiy obyekt sifatida o‘rganiladi.
- ✓ **Kompetensiyaviy yondashuv** — monitoring asosida bilim, ko‘nikma va malakalarni emas, balki kompetensiyalarni aniqlash va baholash ustuvor bo‘ladi.

Bular monitoringni nafaqat nazorat vositasi, balki ta’lim sifatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi strategik boshqaruv vositasi sifatida qarashga imkon beradi. Yuqorida ta’kidlangan PQ-2909-son qaror asosida, oliy ta’limda monitoring vazifasi faqat tekshirish emas, balki rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida ko‘rilishi belgilangan. Yana bir ilmiy manba — UNESCO (2017) tomonidan chop etilgan “*Education Quality Monitoring Guidebook*”da ta’lim monitoringi o‘zgarishlar dinamikasini aniqlash, barqarorlik va rivojlanish trayektoriyasini baholash uchun zarur bo‘lgan vosita sifatida tavsiflanadi.

Shunday qilib, monitoring tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari uning har bir turini (ichki va tashqi monitoring, joriy va yakuniy monitoring) tizimli va izchil baholashga xizmat qiladi. Monitoring ta’lim tizimini doimiy ravishda “*diagnostika + tahlil + rivojlantirish*” yo‘nalishida harakatlantiruvchi vosita sifatida qaraladi.

Ta’lim monitoringi tizimida o‘quv jarayonining sifatini baholash uchun aniq mezonlar va ko‘rsatkichlar belgilanadi. Ular ta’lim samaradorligini chuqur tahlil



qilish, mavjud muammolarni aniqlash va rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi. Quyida ushbu mezonlarning har biri batafsil yoritib beriladi:

Ta’limiy yutuqlar darajasi – bu mezon o‘quvchilarning o‘quv dasturlari bo‘yicha erishgan real natijalarini anglatadi. Jumladan, sinov natijalari, nazorat ishlari, davlat attestatsiyasi, xalqaro yoki milliy baholash tizimlari (masalan, TIMSS, PISA, NAP) orqali olingan ballar asosida baholanadi. Yutuqlar darajasi o‘quvchilarning dars materiallarini qay darajada o‘zlashtirganini, fikrlash qobiliyatini, mustaqil ishlash va amaliy topshiriqlarni bajarish malakasini ko‘rsatadi.

Bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiya sifati – faqatgina nazariy bilim emas, balki o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalari, hayotiy vaziyatlarda bilimdan foydalana olish layoqati ham muhim ko‘rsatkichdir. Bu mezon o‘quvchilarning mustaqil fikrashi, axborotni tahlil qilish, muammoni hal etish, muloqot qilish, jamoada ishlash, innovatsion fikr yuritish kabi funksional kompetensiyalarni o‘lchashga qaratilgan. Shuningdek, kasbiy ta’limda bu mezon bitiruvchilarning ishga tayyorlik darajasi bilan ham baholanadi.

Ijtimoiy moslashuv darajasi – zamonaviy ta’lim shunchaki dars berish emas, balki o‘quvchini jamiyatga moslashtirish, ijtimoiy hayotda faol ishtirok eta oladigan shaxs qilib tarbiyalashni ham o‘z ichiga oladi. Monitoring bu mezon orqali o‘quvchilarning jamoadagi xulq-atvori, yetakchilik qobiliyati, muomala madaniyati, ijtimoiy faolligi, tanqidiy va empatik fikrlash qobiliyatlarini o‘rganadi. Bunga qo‘srimcha ravishda o‘quvchilar ishtirokidagi to‘garaklar, loyihalar, tanlovlardan, ijtimoiy tadbirlar ham baholashning asosiy qismi hisoblanadi.

O‘quv dasturlariga moslik – o‘quv jarayonining amalda qanday olib borilayotgani, ta’lim standartlari va tasdiqlangan dasturlarga qanchalik mos

kelishi alohida e'tiborga olinadi. Bu yerda o'qituvchilarning dars jadvali, mavzularni yoritish darajasi, fanlararo integratsiya, darslarning zamonaviy metodikaga asoslanganligi, innovatsion yondashuvlar (STEAM, CLIL, PBL va boshqalar)dan foydalanish holatlari tahlil qilinadi. Dasturdan chetga chiqish holatlari yoki sifatsiz yondashuvlar aniqlansa, ularni tuzatish choralari ko'rildi.



Resurslar bilan ta'minlanganlik – ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi, kutubxonalar, laboratoriya jihozlari, kompyuterlar, internet tarmog'i, o'quv qurollari bilan ta'minlanganlik darajasi bu mezon orqali o'lchanadi. Bunda nafaqat resurslarning mavjudligi, balki ularning holati, yangilanish tezligi va ulardan foydalanish samaradorligi ham inobatga olinadi. Masalan, zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari bor bo'lsa ham, agar ular ishlatalmayotgan bo'lsa, bu salbiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan mezonlar monitoring tizimining muhim poydevori hisoblanadi. Ular orqali ta'lim jarayonining har bir bosqichi chuqur tahlil qilinadi va natijaga yo'naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish choralari belgilanadi. Monitoring faqat tekshirish vositasi emas, balki ta'lim sifatini doimiy ravishda oshirishga xizmat qiladigan muhim boshqaruv instrumentidir.

Bunday ko'rsatkichlar asosida monitoring nafaqat statistik tahlilni, balki diagnostik va prognozli baholashni ham o'z ichiga oladi. Bu esa o'z navbatida boshqaruv qarorlarining sifatlari bo'lishini ta'minlaydi.

Monitoring o'tkazishda qo'llaniladigan asosiy metodlar:

- so'rovnama va testlar;
- kuzatuv va intervyu;
- portfoliolar tahlili;
- statistik tahlil va reyting bahosi;

- elektron monitoring vositalari (Learning Management Systems, EduPage, Mahorat, HEMIS).
- Monitoring natijalari asosida ta’lim sifati, yutuqlari va muammolari aniqlanadi, shuningdek, bu natijalar pedagogik, metodik va boshqaruv yechimlari qabul qilishda asos sifatida xizmat qiladi.

Monitoringning ta’lim tizimidagi ro‘li uni qanday funksiyalarni bajarishi orqali yanada aniqlanadi.

Diagnostik funksiyasi – bu funksiya yordamida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalari aniqlanadi. Masalan, UNESCO tavsiya etgan baholash tizimlari asosida o‘quvchilar darajasi sinf-sinf, fan-fan bo‘yicha aniqlanishi mumkin.

Baholovchi funksiyasi – bu orqali ta’lim jarayonining umumiy holati, individual yoki guruh natijalari mezonlar asosida o‘lchanadi. O‘zbekistonda 2023-yildan joriy etilgan “Yagona baholash mezonlari” bu funksiyaning amaliy ko‘rinishidir.

Tashxislovchi (analitik) funksiyasi – monitoring ta’lim jarayonidagi muammolarni aniqlash, tahlil qilish va yechim ishlab chiqishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Masalan, OTMlarda yakuniy attestatsiyalar tahlili asosida sifatni oshirish bo‘yicha reja ishlab chiqiladi.

Informatsion funksiyasi – monitoring jarayonida to‘plangan ma’lumotlar rahbariyat, ota-onalar va boshqa manfaatdor tomonlarga yetkaziladi. Ta’lim sifati bo‘yicha Davlat inspeksiyasining yillik hisobotlari bunga misol bo‘la oladi.

Tashkiliy funksiyasi – monitoring orqali ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari — o‘qituvchilar, o‘quvchilar, rahbarlar, ota-onalar o‘z o‘rnini va javobgarligini anglaydi, hamkorlikda ishlashga intiladi.

Motivatsion funksiyasi – baholash natijalari orqali o‘quvchilarda raqobat ruhini shakllantirish, o‘qituvchilarda sifatli ishlashga intilish kuchayadi. Reytinglar, ochiq baholar bunga xizmat qiladi.

Prognozlovchi funksiyasi – Statik ma’lumotlar asosida o‘quvchilarning keljakdagi natijalari, muammolari va ehtiyojlari aniqlanadi. Misol tariqasida,

PISA xalqaro baholash tizimi orqali o‘quvchilarning kelajakdagi kompetensiyalar darajasi prognoz qilinadi.



UNESCO tomonidan 2017-yilda chop etilgan “*Education Quality Monitoring Guidebook*” qo‘llanmasida ta’kidlanishicha, ta’lim sifatini monitoring qilish faqat baholash vositasi emas, balki ta’lim tizimini chuqur tahlil qilish, tizimli yondashuv asosida isloh qilish va strategik qarorlar qabul qilishning zaruriy mexanizmidir. Ushbu yondashuvda monitoring o‘ziga xos “diagnostik vosita” sifatida talqin qilinadi, u orqali ta’lim tizimidagi uzbek muvozanat, resurs taqsimoti, o‘quv dasturlarining zamonaviy talablar bilan mosligi aniqlanadi.

Mazkur hujjatda monitoring quyidagi bosqichlarda tavsiya etiladi:

- ✓ Indikatorlar ishlab chiqish (sifat, qamrov, samaradorlik, tenglik bo‘yicha);
- ✓ Axborot yig‘ish va tahlil qilish (so‘rovnomalar, testlar, kuzatuvlar asosida);
- ✓ Politik qarorlar bilan bog‘liq tavsiyalar ishlab chiqish;
- ✓ Baholash natijalarini jamoatchilik bilan ochiq muhokama qilish.

Raqamlı texnologiyalarning ta’lim jarayonlariga ta’siri kundan kunga ortib bormoqda. Zamonaviy ta’limning jadal rivojlanishi, ayniqsa, raqamlı texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning ta’limning sifatini oshirish va interfaol qilishdagi ro‘li muhim ahamiyat kasb etmoqda. XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng tarqalishi ta’lim oluvchilarga o‘quv jarayonlarini yanada qiziqarli, mazmunli va samarali tashkil etish imkoniyatlarini yaratmoqda.

Raqamlı ta’lim texnologiyalari nafaqat o‘quvchilarga, balki

o‘qituvchilarga ham o‘qish sifatini yaxshilash uchun zamonaviy pedagogik dasturlardan foydalanish imkoniyatini bermoqda. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonini moslashuvchan va individual yondashuv asosida tashkil qilish mumkin bo‘ladi. Masalan, sun’iy intellekt va moslashuvchan o‘qitish platformalari yordamida o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari va bilim darajasiga mos ravishda o‘quv kontentlari yaratish mumkin. Bu esa o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishga, ularning o‘quv jarayonida yanada faol ishtirok etishiga yordam beradi.

Shuningdek, raqamli muhitda ta’lim olish orqali o‘quvchilar nafaqat global bilimlarga ega bo‘lishadi, balki xalqaro darajadagi tengdoshlari bilan tajriba almashish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarning keljakdagi global raqobatbardoshlik darajasini oshiradi. Ta’lim sifatini aniqlash va uni oshirish uchun xalqaro miqyosda o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash tizimlari muhim ahamiyatga ega. Bu tizimlarning biri – PISA (Programme for International Student Assessment). PISA har uch yilda bir marta o‘tkaziladigan xalqaro tadqiqot bo‘lib, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan tashkil etiladi va 15 yoshdagi o‘quvchilarning matematika, tabiiy fanlar va o‘qish savodxonligi bo‘yicha tayyorgarlik darajasini baholaydi.

UNESCO yondashuvi nafaqat hukumat darajasida, balki maktab, o‘qituvchi va o‘quvchi darajasida ham monitoring olib borish tizimini tavsiya etadi. Bu esa monitoringni ko‘p bosqichli, ko‘p darajali va ko‘p manfaatlil tizim sifatida qarashga asos bo‘ladi. Xalqaro ta’lim monitoringi bo‘yicha eng yirik dasturlar — PISA (Programme for International Student Assessment), TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) va PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) — jahon miqyosida ta’lim samaradorligini baholashda asosiy o‘rin tutadi.



2025-yilda o‘tkaziladigan PISA baholash jarayoni avvalgi tadqiqotlardan farq qiladigan yangi texnologiyalar asosida o‘tkazilishi rejalashtirilgan edi. Ushbu tadqiqotning yangi yondashuvi, ayniqsa, raqamli dunyoda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini baholashga alohida e’tibor qaratishdir. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, o‘quvchilarning savodxonligini oshirish bilan birga, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, axborotni tahlil qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yangiliklar PISA 2025 tadqiqotining asosiy yangiliklari bo‘lib, ta’lim tizimining zamonaviy talablarga moslashishini ta’minlaydi.

PISA (Programme for International Student Assessment) o‘quvchilarning faqat darslikdagi bilimlarini emas, balki ularning real hayotdagi bilimlarni qanday qo‘llay olish qobiliyatini ham baholaydi. PISA testlari o‘quvchilarning nafaqat bilimi, balki uni kundalik hayotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini o‘lchashga qaratilgan. PISA o‘quvchilarning bilimlarini uchta asosiy yo‘nalishda baholaydi:

O‘qish Savodxonligi — o‘quvchilarning matnlarni tushunish, tahlil qilish va ulardan foydalana olish ko‘nikmalarini o‘lchaydi. Bu yo‘nalishda o‘quvchilar matnni to‘liq tushunib, undan turli vaziyatlarda qanday foydalanish mumkinligini o‘rganadilar. O‘qish savodxonligi nafaqat matnni yodlash, balki matnni tanqidiy tahlil qilish va undagi ma’lumotlarni samarali ishlatalishni ham o‘z ichiga oladi.


Matematik savodxonligi — bu matematik tushunchalarni kundalik hayotda qo‘llash qobiliyatini o‘lchaydi. Bu yo‘nalishda o‘quvchilarning matematik formulalarni, hisob-kitoblarni va analitik yondashuvlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llashga tayyorligini o‘rganadi. Matematik savodxonlik faqat matematik masalalarni yechishda emas, balki kundalik hayotdagi masalalarni hal qilishda ham yordam beradi.

Tabiiy-ilmiy savodxonlik — Tabiiy-ilmiy savodxonlik, o‘quvchilarning ilmiy bilimlarni tushunish va ularni atrof-muhit bilan bog‘lash qobiliyatini

o‘lchaydi. Bu yo‘nalish ilmiy tushunchalarni anglash, tajriba o‘tkazish va ilmiy ma’lumotlarni atrof-muhitda qo‘llashni o‘rganishga yordam beradi. O‘quvchilar ilmiy bilimlarni amaliy holatlarda qanday ishlatishlarini ko‘rsatishlari kerak.

Zamonaviy ta’lim tizimida asosiy e’tibor — o‘quvchining bilimni yodlab olishiga emas, balki uni tahlil qilish, real hayotda qo‘llash va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Ana shunday yondashuvni baholovchi xalqaro tizimlardan biri bu — PISA testlari (Programme for International Student Assessment) hisoblanadi.

PISA testlari o‘quvchilarning an’anaviy testlardagi kabi faktlarni yodlab eslab qolish qobiliyatini emas, balki ularning muammolarini tahlil qilish, yechim topish va izchil fikrlash qobiliyatlarini baholaydi. Bu testlar o‘quvchilarning hayotiy vaziyatlarda, real muammolarni hal qilishda bilimlarni qanday qo‘llay olishlarini sinovdan o‘tkazadi. Demak, bu yondashuv o‘quvchini o‘quvchi bo‘lishdan tashqari, fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qiluvchi shaxs bo‘lishga yo‘naltiradi.



PISA testlarida beriladigan savollar interfaol matnlar, grafiklar, diagrammalar, real hayotdagи vaziyatlar asosida tuziladi. Masalan, biror ekologik muammo, ijtimoiy vaziyat yoki iqtisodiy masala bo‘yicha matn beriladi va o‘quvchidan ushbu vaziyat asosida fikr yuritish, echim taklif qilish, taqqoslash, sabablilik bog‘lanishini aniqlash kabi vazifalarni bajarish talab etiladi. Bu esa o‘quvchilarning nafaqat bilimini, balki bilimdan foydalanish madaniyatini ham rivojlantiradi.

PISA testlari dunyoning 80 dan ortiq mamlakatlarida 15 yoshli o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkaziladi. Bu testlar orqali mamlakatlarning o‘rta ta’lim tizimi, o‘quvchilarning amaliy bilim darajasi va raqobatbardoshligi xalqaro mezonlar asosida baholanadi. PISA natijalari ta’lim siyosatini shakllantirishda, kuchli va zaif jihatlarni aniqlashda, strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bu test mamlakatlar o‘rtasida ta’lim sifati bo‘yicha sog‘lom raqobat muhitini yaratadi.

PISA testlari — bu zamonaviy ta’limda yodlash emas, balki tahlil qilish, o‘ylash va fikrlashni rivojlantirish zarurligini yaqqol ko‘rsatadigan vositadir. U o‘quvchilarning real hayotda qanday yashashi, qanday qarorlar qabul qilishi, qanday yo‘l tutishini bilishga yordam beradi. Shu sababli bugungi ta’lim tizimi aynan shunday mezonlar asosida shakllanib borishi, o‘quvchini faqat dars uchun emas, balki hayot uchun tayyorlashi kerak.

PISA 2025-yilgi baholash jarayoni oldingi tadqiqotlardan farq qiladi, chunki unda raqamli dunyo sharoitida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini baholashga alohida e’tibor qaratildi. Raqamli ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish o‘quvchilarning bilim darajalarini oshirishga, shuningdek, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

PISA testlari nafaqat o‘quvchilarning akademik bilimlarini o‘lchash, balki ularning real hayotda bilimlarini qo‘llash qobiliyatini o‘lchashda muhim ro‘l o‘ynaydi. Bu testlar, o‘quvchilarning tahlil qilish, muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va boshqa ko‘nikmalarini baholashga qaratilgan va ta’lim tizimining global miqyosdagi samaradorligini aniqlashda asosiy vosita hisoblanadi. PISA – 2025 testining yangi yondashuvi, raqamli texnologiyalardan foydalanish va raqamli dunyoda o‘quvchilarning bilim darajalarini o‘lchash orqali ta’lim tizimining zamonaviy talablarga javob berishini ta’minlaydi.

TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) — bu xalqaro baholash dasturi bo‘lib, 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika hamda

tabiiy fanlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini o‘lchaydi. Ushbu dastur orqali o‘quvchilarning fanlarga oid bilim darajasi va ularni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyati aniqlanadi. TIMSS dasturining asosiy maqsadi — turli mamlakatlardagi o‘quvchilarning fanga oid tayyorgarligini solishtirish, o‘qitish sifatini baholash va ta’lim tizimlarini takomillashtirishga xizmat qiladigan ma’lumotlar to‘plashdir. TIMSS har to‘rt yilda bir marta o‘tkaziladi va uni Xalqaro ta’lim yutuqlarini baholash uyushmasi (IEA) tashkil etadi. Baholash matematika (masalan, sonlar, algebra, geometriya) va tabiiy fanlar (masalan, biologiya, fizika, Yer va kosmos haqidagi bilimlar) bo‘yicha olib boriladi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) — bu xalqaro o‘qish savodxonligini baholash dasturi bo‘lib, asosan 4-sinf o‘quvchilarining matnni tushunish va fikr yuritish ko‘nikmalarini aniqlashga qaratilgan. PIRLS o‘quvchilarning adabiy va axborotli matnlarni qanday tushunishi, ulardagi ma’lumotlarni izohlash, fikri ifodalash va sharhlash qobiliyatini baholaydi. Ushbu dastur orqali o‘quvchilarning o‘qish orqali bilim olishga tayyorligi, ularning ta’lim olishga bo‘lgan munosabati, oilaviy va maktab muhitining bu jarayonga ta’siri ham o‘rganiladi. PIRLS dasturi har besh yilda bir marta o‘tkaziladi va uni ham IEA tashkil etadi.



Bu baholash dasturlari ta’lim siyosatini shakllantirish, islohotlarni rejalashtirish va resurslarni samarali taqsimlash uchun muhim manba sifatida tan olingan. Masalan, PISA natijalariga ko‘ra, bir qancha davlatlar o‘z milliy o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqqan, o‘qituvchilar tayyorgarligi va baholash tizimini takomillashtirishga e’tibor bergan. BMT Taraqqiyot dasturining

(UNDP) 2022-yilgi ma'lumotiga ko'ra, PISA tahlillari asosida ishlab chiqilgan milliy strategiyalar ta'limdagi tenglik, gender balansi va ijtimoiy adolatni kuchaytirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, bu monitoringlar orqali aniqlangan zaif jihatlar xalqaro donor tashkilotlar uchun ham prioritet sohalarni aniqlash va yordam dasturlarini tuzish imkonini bergan.

Shu sababli UNESCO va xalqaro monitoring tizimlarining metodologiyasi bugungi kunda nafaqat ta'lim sifatini baholash, balki uni barqaror rivojlantirish vositasi sifatida qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham 2018-yildan boshlab PISA dasturida ishtirok etishni boshlagan va 2025-yilgi milliy ta'lim strategiyasini aynan shu baholash tizimlari asosida shakllantirishni rejalashtirmoqda. Monitoringning samarali olib borilishi uchun baholash mezonlari (kriteriyulari) va indikatorlar (ko'rsatkichlar) aniq va o'lchab bo'ladigan bo'lishi lozim. Mezonga o'qituvchi yoki muassasaning faoliyati qanday bo'lishi kerakligi haqidagi talablar yotadi. Indikator esa — bu mezon qanday aniqlanayotganini ko'rsatuvchi konkret raqamli yoki sifatli ko'rsatkichdir.

Har qanday monitoring jarayonining muvaffaqiyati, avvalo, qanday mezonlar asosida baholash olib borilayotgani va bu mezonlarga qanday indikatorlar (ko'rsatkichlar) mos qo'yilganiga bog'liq. Agar mezonlar aniq, o'lchanuvchan va monitoring ishtirokchilari uchun tushunarli bo'lsa, u holda monitoringdan olingan ma'lumotlar real boshqaruvi qarorlariga asos bo'la oladi. Aks holda



monitoring shunchaki statistik yig'ma bo'lib qoladi. Ko'rsatkich (indikator) – bu baholanayotgan holat yoki jarayonning miqdoriy yoki sifat jihatdan ifodalangan o'lchov birligidir. Har bir mezon uchun aniq indikatorlar ishlab chiqiladi. Ular ta'limdagi holatni baholashda asosiy mezonning namoyon bo'lish darajasini o'lchaydi.

Quyidagi misollarni ko‘rib chiqamiz:

- ✓ O‘quvchilarning baholari o‘rtacha balli – bu indikator orqali sinf yoki muassasa bo‘yicha umumiyligi o‘zlashtirish darajasi aniqlanadi. Masalan, o‘rtacha baho 3.8 dan yuqori bo‘lishi — talab darajasini anglatadi.
- ✓ To‘g‘ri ishlangan testlar foizi – o‘quvchilarning test sinovlari natijasini aniqlashda ishlataladi. 70 % dan yuqori natija — yuqori darajadagi tayyorgarlik belgisi.
- ✓ O‘quvchilar ishtirokidagi amaliy ishlar soni – faoliyatga asoslangan yondashuvni baholovchi indikator.
- ✓ Bitiruvchilarning OTMga kirish ko‘rsatkichi – mакtab, litsey yoki kollejning sifat ko‘rsatkichidir.
- ✓ O‘qituvchining o‘z malakasini oshirgan kurslar soni – yillik kamida 1 marotaba malaka oshirish talab etiladi.
- ✓ Darslik va resurslarning yangilanish foizi – zamonaviy ta’lim talablariga mos kelishini aniqlaydi.
- ✓ Faol metodlardan foydalanish chastotasi – o‘qituvchi haftasiga kamida 2 marta interaktiv metodlardan foydalansa, bu yuqori faollik belgisi hisoblanadi.

Shuni unutmaslik kerakki, indikatorlar bevosita qaror qabul qilishda foydalanuvchi real, dalillarga asoslangan ma’lumot manbaidir.

O‘zbekistonda “Milliy reyting tizimi” doirasida ta’lim muassasalari faoliyati baholanishida quyidagi mezonlar qo‘llaniladi:

O‘quv dasturini bajarish foizi – rejorashtirilgan o‘quv hajmining real bajarilish darajasi;

Davomat va ishtirok – o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi uzlusiz ishtirokini ko‘rsatadi;

O‘quvchilarning yutuqlari – olimpiada, grant, sertifikatlar orqali baholanadi;

Bitiruvchilarning bandligi – kasbga ega bo‘lganlik, oliy ta’limga kirganlar foizi;

Hamkorlik faoliyati – xalqaro va mahalliy tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar, loyiha ishtiroki.

Xalqaro miqyosda PISA, TIMSS, PIRLS kabi baholash tizimlari keng qo'llaniladi. Masalan, PISAda o'quvchi "daryodan o'tishda qanday ko'prik eng xavfsiz bo'ladi?" kabi savollarga javob berishi kerak — ya'ni, bilimdan amaliyotga o'ta olish qobiliyati baholanadi.

Baholash mezonlarining sifatli tanlanishi indikatorlardan ham muhimdir.



Ta'lim monitoringi va baholash mezonlariga qo'yiladigan asosiy talablar:

Aniq o'chanuvchan bo'lishi kerak. Har qanday mezon aniq va o'chab bo'ladigan ko'rsatkichlarga asoslangan bo'lishi lozim. Bu degani, mezonlar raqamlar, foizlar, ballar orqali ifodalangan bo'lishi va natijalarini ob'yektiv baholash imkonini berishi kerak. Masalan: "O'quvchilarning 85 foizi testdan 70 va undan yuqori ball olishi kerak".

Realistik bo'lishi kerak. Belgilangan mezonlar mavjud sharoit va imkoniyatlarga mos bo'lishi zarur. Juda yuqori yoki juda past talablar noadekvat hisoblanadi. Realistik mezonlar orqali amaliy natjalarga erishish osonlashadi va ularning bajarilishi imkon darajasida bo'ladi.

Qamrab oluvchi bo'lishi kerak. Monitoring mezonlari butun ta'lim jarayonini emas, balki uning asosiy va muhim jihatlarini qamrab olishi lozim. Ya'ni, baholash umumiy emas, balki o'quvchilarning asosiy bilim, ko'nikma va kompetensiyalariga qaratilgan bo'lishi kerak.

Tushunarli bo'lishi kerak. Belgilangan mezonlar barcha ishtirokchilar (o'qituvchi, maktab rahbariyati, ota-onalar) uchun aniq, sodda va tushunarli bo'lishi kerak. Har bir ishtirokchi mezonning mazmunini to'g'ri anglab, unga amal qila olishi muhim hisoblanadi.



Agar mezonlar mavhum, indikatorlar o‘lchovsiz bo‘lsa, monitoring samarali bo‘lmaydi. Monitoringda qo‘llaniladigan mezonlar va indikatorlar — bu ta’lim sifatini o‘lhash vositalari bo‘lib, ular orqali biz muassasa yoki o‘quvchi holatini aniq va raqamli tilda ifodalay olamiz. Bu mezonlar orqali real tahlil, samarali qaror va aniq rejalashtirish mumkin bo‘ladi. Yaxshi tashkil etilgan monitoring — bu ta’lim muassasasining doimiy o‘zini tahlil qiluvchi va rivojlantiruvchi ichki mexanizmi demakdir. Ta’lim sifatini monitoring qilishda qo‘llaniladigan metodlar monitoring jarayonining aniqligi, ob’yektivligi va ishonchliligin ta’minlovchi vositalar sifatida qaraladi. Har bir metod ma’lum vazifani bajaradi: ayrimlari statistik tahlilga, ayrimlari esa sifatlari tahlilga asoslanadi. Monitoring metodlari tanlashda ta’lim bosqichi, baholash ob’yekti, texnik imkoniyatlar va ishtirokchilarining malakasi hisobga olinadi.

Monitoring metodlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Kuzatuv metodi — dars jarayoni, o‘quvchilarning ishtiroki va o‘qituvchining faoliyatini bevosita kuzatish orqali tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Dars davomida o‘quvchining savolga javob berish chastotasi, o‘qituvchining interaktiv metodlardan foydalanishi, muhitdagi intizom va e’tibor darajasi kuzatuv jurnali asosida qayd etiladi.



So‘rovnama — ishtirokchilar (o‘quvchi, o‘qituvchi, ota-onalar) fikrlarini yozma tarzda aniqlash; intervyu — og‘zaki muloqot shaklida fikr olish metodi.

O‘quvchilarning “Darsdagi faol ishtirokdan qancha mamnun?” degan savol asosida islohotga ehtiyoj aniqlanadi.

Diagnostik testlar va baholash vositalari — bu metod yordamida o‘quvchilarning aniq bilim, ko‘nikma va kompetensiyalari o‘lchanadi. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilar o‘qish tezligi, tushunish darajasi va yozuv savodxonligi bo‘yicha maxsus testlardan o‘tkaziladi.

O‘quvchilarning portfollari — ular bajargan ishlar, loyihalar, yozma ishlar, topshiriqlardan iborat to‘plam 1 yillik portfoliodan o‘quvchining mustaqil fikrlashi, muammoli topshiriqlar yechish darajasi va ijodiy yondashuvi aniqlanadi.

Reyting baholash — ishtirokchilarning faoliyatini maxsus mezonlarga asoslangan ballik tizim orqali baholash. Afzalligi: raqobat muhiti yaratadi, natijani aniq ko‘rsatadi. Kamchiligi: noto‘g‘ri tashkil etilsa, demotivatsiyaga olib keladi.

Elektron monitoring vositalari — HEMIS, EduPage, Mahorat.uz, Google Formlar va boshqa platformalar orqali monitoring. Afzalligi: tez, ko‘p miqdordagi ma’lumotni to‘playdi va avtomatik tahlil qiladi. Kamchiligi: texnik ko‘nikma va raqamli infratuzilmaga bog‘liq.



EduPage orqali 1 oy davomida o‘quvchilarning davomati, baholari va topshiriqlari onlayn monitoring qilinadi.

Monitoring metodlari har xil bo‘lishi mumkin, lekin ularning barchasi yagona maqsadga — ta’lim sifatini baholash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Har bir metod o‘z vazifasiga qarab tanlanadi: ayrimlari natijani aniqlashga, boshqalari esa jarayonni chuqur tahlil qilishga yo‘naltiriladi. Eng samarali yondashuv — bu bir nechta metodni kombinatsiyalab qo‘llashdir.

Ta’lim sifati monitoringining nazariy-metodologik asoslari uning ilmiy asoslangan, tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida qaralishini ta’minlaydi. Monitoring tushunchasi, bir tomonidan, nazorat va baholash jarayonlarining ilmiy jihatdan asoslangan tizimini anglatadi, boshqa tomonidan

esa ta’lim sifatini doimiy kuzatish, tahlil qilish va takomillashtirishga qaratilgan amaliy faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Monitoringning pedagogik jarayondagi o‘rni ta’lim sifati va samaradorligini doimiy ravishda aniqlab borish, tizimda yuzaga kelayotgan muammolarni erta bosqichda aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. U o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajasi, o‘qitish uslublarining samaradorligi hamda ta’lim muassasasining ichki resurslarini tahlil qilishda muhim vositadir.

Metodologik jihatdan monitoringga yondashishda bir nechta konseptual asoslar ajralib turadi. Jumladan, tizimli yondashuv monitoringni o‘zaro bog‘liq komponentlar majmuasi sifatida ko‘rib chiqadi; kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchi shaxsida shakllangan bilim, ko‘nikma va malakalarining amaliy namoyon bo‘lishini baholaydi; faoliyat yondashuvi esa monitoringni o‘quvchilarining o‘quv faoliyatini faollashtirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida tushuntiradi.

Monitoringda qo‘llaniladigan mezonlar va ko‘rsatkichlar sifatni aniqlash va baholashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu mezonlar ta’lim mazmuni, ta’lim jarayoni, o‘quvchilar natijalari va boshqaruv samaradorligini baholovchi ko‘rsatkichlardan iborat bo‘lib, ular asosida holatga mos qarorlar ishlab chiqiladi.

Monitoring metodlari esa sifatli va miqdoriy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Kuzatuv, so‘rovnama, test sinovlari, portfel tahlili, diagnostik intervyular kabi metodlar turli bosqichlarda qo‘llaniladi va ular orqali ta’lim jarayonining chuqur va har tomonlama tahlili amalga oshiriladi.

Umuman olganda, ta’lim sifatini monitoring qilishda nazariy va metodologik asoslarning to‘g‘ri tanlanishi ushbu jarayonning ilmiyligi, aniqligi va amaliy samaradorligini ta’minlaydi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim tizimini boshqarish va isloh qilish jarayonlarining sifatli tashkil etilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov M.M. “Pedagogik monitoring va baholash asoslari”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. bet 17–39.
2. Qurbanov A., Xolboyev M. “Ta’limda sifatni boshqarish”. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. bet- 67
3. “Ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha davlat dasturi”. – Respublika ta’lim portali, 2022. (<https://uzedu.uz>)
4. Mamatqulov Sh. “Monitoring va ta’lim texnologiyalari”. – Termiz: TDPU filiali, 2019. bet–36
5. UNESCO. Education Quality Monitoring Guidebook. – Paris, 2017.



Nazorat savollari:

1. Monitoring tushunchasiga ilmiy va amaliy yondashuvlarni izohlang.
2. Tizimli, faoliyat va kompetensiyaviy yondashuvlar o‘rtasidagi farqlarni tushuntiring.
3. Ta’lim monitoringida indikator va mezon tushunchalari qanday farqlanadi?
4. Monitoring jarayonida diagnostika va prognozlash qanday amalga oshiriladi?
5. Zamonaviy monitoringda qanday elektron vositalar qo’llaniladi?



Amaliy topshiriqlar:

1. Siz faoliyat yuritayotgan muassasa (yoki tanlangan OTM)da mavjud monitoring mexanizmini tahlil qiling.

2. Tizimli yondashuv asosida biror ta’lim holatini monitoring qilish sxemasini chizing.
3. 3 xil mezon va 5 xil indikator asosida baholash jadvalini tuzing.
4. EduPage yoki HEMIS tizimidan foydalanib, elektron monitoringga doir misollar keltiring.
5. Faoliyat yondashuvi asosida sinfda o‘quvchi faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqing.

1.3 TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH BORASIDA DAVLAT KAFOLATLARI

Reja:

1. Ta’lim sifati tushunchasi va u bilan bog‘liq kafolatlar
2. Davlat siyosatida ta’lim sifati ustuvor yo‘nalish sifatida
3. Konstitutsiyaviy va qonunchilik asoslari
4. Davlat kafolatlarining shakllari va mexanizmlari
5. Milliy hamda xalqaro kafolatlar tizimi

Tayanch so‘zlar: ta’lim sifati, davlat kafolati, qonunchilik asoslari, monitoring, standartlar, milliy baholash tizimi, xalqaro reyting.

Ta’lim sifati — bu ko‘p komponentli, tizimli yondashuv asosida shakllanadigan ijtimoiy-pedagogik holat bo‘lib, u o‘quvchi, o‘qituvchi, o‘quv dasturi, ta’lim muassasasi, boshqaruv mexanizmlari va mavjud infratuzilma faoliyatining uzviy hamkorlikda erishilgan natijasi hisoblanadi. Mazkur natijalar milliy ta’lim standartlari, xalqaro sifat indikatorlari, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion texnologiyalar va iqtisodiy-sotsial sharoitlar bilan chambarchas bog‘liq holda baholanadi. Davlat esa ta’lim sifatini strategik resurs sifatida ko‘radi va uning ta’milanishi, barqaror rivoji va monitoringi uchun

institutsional, me'yoriy-huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy mas'uliyatni to'liq o'z zimmasiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasining 50-moddasida aniq belgilab qo'yilgan: "*Har kim sifatli ta'lim olish huquqiga ega.*"

Bu normativ formulirovka bir nechta yuridik va siyosiy mas'uliyatlarni bildiradi:

- ⊕ *Davlat uchun majburiyat* — ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash emas, balki bu ta'limning sifati ham zarur darajada bo'lishi kerak.
- ⊕ *Fuqaro uchun kafolat* — faqat rasmiy diplom emas, balki raqobatbardosh, zamonaviy, xalqaro mezonlarga javob beruvchi bilim olish huquqi.
- ⊕ *Huquqiy nazorat ob'yekti* — sifatsiz ta'lim holatlarida davlat organlari va jamiyat aralashuvini qonuniy asosda talab qilish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Ta'lim sifati masalasi davlat siyosatining strategik ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etilgan. Bu nafaqat deklarativ bayonotlarda, balki qabul qilingan qarorlar, dasturlar va moliyaviy mexanizmlarda o'z aksini topgan. Ta'lim sifati davlat siyosatining muhim komponenti sifatida normativ-huquqiy kafolat, institutsional yondashuv, texnologik nazorat vositalari, xalqaro tajriba asosida baholash mexanizmlari bilan qo'llab-quvvatlanmoqda. Davlat sifat kafolatini nafaqat nazorat, balki rivojlantirish, innovatsiyalash va xalqaro standartlarga moslashtirish vositasi sifatida qaramoqda.

Asosiy hujjatlar va tashabbuslar:

- ✓ Prezident qarori PQ-2909 (2017-yil, 20-aprel) — oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, sifatni baholashning ichki va tashqi mexanizmlarini joriy etish, xalqaro akkreditatsiya tizimlariga bosqichma-bosqich integratsiyalashish vazifalari belgilangan.
- ✓ "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020) — davlat tomonidan har bir ta'lim bosqichi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi, ta'lim standartlari ishlab chiqilishi, ularning ijrosi monitoring qilinishi belgilangan.

- ✓ Davlat dasturlari (Yoshlar daftari, Mahalla dasturi, 5 ta muhim tashabbus) — ta’lim sifatini hududlar va ijtimoiy guruhlar kesimida tenglashtirishga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda ta’lim sifatini boshqarish faqatgina nazorat va ma’muriy ko‘rsatmalar asosida emas, balki natijaviylik, barcha bosqichlarning o‘zaro uyg‘unligi va raqamli texnologiyalar orqali real tahlil imkoniyatlari bilan yo‘naltirilmoqda. Shu maqsadda davlat siyosatida bir necha zamonaviy yondashuvlar asosiy mezon sifatida tanlab olingan:

Bu yondashuv asosida ta’lim muassasalari faoliyatining samaradorligi faqatgina ularning faoliyat hajmi bilan emas, balki aniqlangan natijalar asosida baholanadi.



Natijaga yo‘naltirilgan boshqaruvning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

- ✓ maqsadlarni aniq belgilash;
- ✓ ularni amalga oshirish uchun strategik rejallashtirish;
- ✓ indikatorlar asosida doimiy kuzatuv va baholash;
- ✓ natijalarga asoslangan qarorlar chiqarish.

Ta’lim sifatini aniqlash va tahlil qilishda raqamli texnologiyalar vositasida ma’lumot to‘plash, qayta ishslash va real vaqt rejimida baholash imkonini beruvchi monitoring tizimlari joriy etilgan. Jumladan:

- ✓ HEMIS (Higher Education Management Information System) – oliy ta’limda;
- ✓ EduPage, E-Shahodatnomalar – umumiyo‘rtta ta’limda;
- ✓ Mahorat.uz, National Testing Base – o‘qituvchi faoliyati va yutuqlarini monitoring qilishda.

Ushbu elektron platformalar orqali ta’lim jarayonini real vaqt rejimida kuzatish, ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish va strategik qarorlarni raqamli asosda qabul qilish imkoniyati mavjud bo‘ldi.



Ta’lim sifati har qanday taraqqiyot strategiyasining negizidir. Davlat ushbu strategik yo‘nalishni shakllantirar ekan, uni ustuvor siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tamoyillar bilan bog‘laydi. O‘zbekiston Respublikasi misolida ta’lim sifati sohasida olib borilayotgan islohotlar bevosita davlat siyosatining ajralmas qismi bo‘lib, u quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

Strategik rejalashtirish orqali sifatlilikni belgilash

Davlat tomonidan qabul qilinayotgan har bir qaror va dastur ta’lim sifati mezonlariga bog‘lanadi. Masalan, “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ta’lim sifatini oshirish, yoshlarning innovatsion fikrlash salohiyatini rivojlantirish va xalqaro reytinglardagi o‘rnini mustahkamlash maqsad qilingan.



Sifatni boshqarishda zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash

- ✓ Natijaga yo‘naltirilgan boshqaruvi (Result-Based Management, RBM) orqali ta’lim faoliyatining samarasi aniq indikatorlar asosida baholanadi;
- ✓ ISO 21001:2018 xalqaro standarti asosida ta’lim muassasalari faoliyatini sertifikatlash yo‘lga qo‘yilgan;

- ✓ Elektron monitoring (e-monitoring) tizimlari — HEMIS, EduPage, Mahorat.uz — orqali sifatni doimiy kuzatish imkoniyati yaratilgan.

Davlat byudjeti va xalqaro grantlar orqali ta'minlash

So'nggi yillarda ta'limga yo'naltirilayotgan byudjet mablag'lari hajmi sezilarli darajada oshirilgan. Shuningdek, Jahon banki, Yevropa Ittifoqi va boshqa donor tashkilotlar orqali ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan loyihalar amalga oshirilmoqda.

Xalqaro reytinglar va akkreditatsiya tizimlariga integratsiya

O'zbekiston ta'lim muassasalari QS, THE, Webometrics, ARWU kabi xalqaro reyting tizimlariga jalb etilmoqda. Bu esa ta'lim sifatini global standartlar asosida baholash imkonini beradi.

Kadrlar salohiyatini oshirish

Ta'lim sifatining asosiy omillaridan biri bu pedagog kadrlardir. 2021–2024-yillarda o'qituvchilarning malakasini oshirishga doir davlat dasturi doirasida har yili minglab pedagoglar xalqaro va milliy o'quv markazlarida malaka oshirmoqda. Davlat siyosatida ta'lim sifati faqat nazorat emas, balki rivojlanish, innovatsiya, raqobatbardoshlik va raqamlashtirish vositasi sifatida ko'rilmoxda. Bu yondashuvlar ta'lim tizimini zamonaviylashtirish, uni global standartlarga yaqinlashtirish va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi.



Ta'lim sifati har bir jamiyatning taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorligi va iqtisodiy yuksalishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy davlatlar o'z rivojlanish strategiyalarining markaziga ta'lim tizimini qo'yishmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim sifati davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu yo'nalishda olib

borilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar va amaliy chora-tadbirlar mamlakatda ta’lim sohasini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgan.

Davlat siyosatida ta’lim sifatining alohida o‘rin egallashi, eng avvalo, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati bilan izohlanadi. Sifatli ta’lim — bu malakali kadrlar tayyorlash, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, ilm-fan yutuqlariga asoslangan ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish uchun zarur bo‘lgan asosdir. Shu bois mamlakatda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish strategiyasi”, Milliy ta’lim dasturi kabi hujjatlar orqali ta’lim sifatini oshirishga doir siyosiy, tashkiliy va moliyaviy asoslar yaratilmoqda.

Ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri — bu ta’lim jarayonining mazmunan yangilanishidir. Ya’ni o‘quv rejalarini va dasturlar zamon talablariga mos ravishda qayta ko‘rib chiqilmoqda. Ular mehnat bozorining ehtiyojlariga, xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda. Shu orqali o‘quvchilar amaliy ko‘nikmalarni chuqr egallashi, innovatsion fikrashga ega bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Shuningdek, davlat siyosatida ta’limni moliyalashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. So‘nggi yillarda ta’lim sohasiga ajratilayotgan mablag‘lar hajmi sezilarli darajada oshirilmoqda. Bu esa yangi maktablar, oliy ta’lim muassasalari, kutubxonalar va laboratoriylar barpo etish, mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish, o‘quvchilar va pedagoglarning faoliyatini rag‘batlantirish imkonini berayotir. Ayniqsa, o‘qituvchilar mehnatiga munosib baho berish, ularning ijtimoiy maqomini yuksaltirish, doimiy malaka oshirish tizimini takomillashtirish orqali ta’lim sifatining poydevori bo‘lgan inson omiliga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bundan tashqari, davlat siyosatida ta’limda raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish ham ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Elektron darsliklar, masofaviy ta’lim platformalari, virtual laboratoriylar va sun’iy intellekt asosidagi o‘qitish tizimlari — bularning barchasi ta’lim jarayonining

samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa o‘z navbatida, ta’lim oluvchilarda mustaqil o‘rganish, tahlil qilish, ijodiy fikrlash kabi muhim kompetensiyalarni shakllantiradi.

Ta’lim sifatini oshirish davlat siyosatining asosiy ustuvorliklaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar uzoq muddatli istiqbolda mamlakatimiz taraqqiyotiga zamin yaratadi. Sifatli ta’lim orqali yetuk mutaxassislar, ilmli yoshlar, ilg‘or g‘oyalarga ega bo‘lgan yangi avlod shakllanadi. Bu esa barqaror rivojlangan, raqobatbardosh va taraqqiyot sari intilgan O‘zbekiston jamiyatini qurishda hal qiluvchi ro‘l o‘ynaydi.

Davlat tomonidan ta’lim sifatini kafolatlash borasidagi harakatlar o‘zining yuridik asosini milliy qonunchilik hujjatlaridan oladi. Bu hujjatlar tizimi — ta’lim jarayonining huquqiy poydevori bo‘lib, bunda ta’lim sifati bilan bog‘liq huquq, majburiyat va javobgarliklar aniqlashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 50-moddasi: “Har kim ta’lim olish huquqiga ega.” Bu norma ta’lim sifati bo‘yicha davlat majburiyatlarini konstitutsiyaviy darajada belgilaydi.

Ta’lim har bir jamiyat taraqqiyotining asosi bo‘lib, uning sifati mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Davlat tomonidan qabul qilingan so‘nggi strategik dasturlarda ta’lim sifati asosiy resurs sifatida qaralmoqda. Bunda o‘qituvchi shaxsi ta’lim sifatining poydevori sifatida e’tirof etilgan va u ta’lim tizimining markaziga qo‘yilgan.

Dasturda belgilanishicha, ta’lim sifatini oshirish quyidagi uch yo‘nalishda amalga oshirilishi nazarda tutilgan:

1. O‘quv reja va dasturlarni zamon talablari asosida yangilash.

Zamonaviy dunyo doimiy o‘zgarib borayotganligi sababli o‘quv rejalar va dasturlar ham mehnat bozorining ehtiyojlariga mos tarzda yangilanishi lozim. Bugungi kunda o‘quvchilar faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko‘nikmalarni ham egallashi kerak. Shu boisdan o‘quv dasturlari kompetensiya yondashuvi asosida qayta ko‘rib chiqilishi, interfaol va innovatsion metodlarni qamrab olishi

zarur. Fanlararo bog‘liqlik, amaliy mashg‘ulotlar va real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar orqali o‘quv jarayonining sifati oshiriladi.

2. *Xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash mexanizmlarini joriy etish*. Globallashuv sharoitida milliy ta’lim tizimi xalqaro mezonlar bilan uyg‘unlashishi kerak. Shu sababli o‘quv jarayoniga xalqaro sertifikatlar, ikki diplomli ta’lim dasturlari, xorijiy tilda o‘qitish kabi elementlar kiritilishi lozim. Bundan tashqari, xalqaro akkreditatsiya tizimlariga moslashish, akademik va kasbiy mobillikni ta’minalash orqali kadrlar salohiyati oshiriladi. Bu esa bitiruvchilarning xorijiy mehnat bozorida ham raqobatbardosh bo‘lishini ta’minalaydi.

3. *O‘quv jarayonini ilg‘or texnologiyalar bilan jihozlash (material-texnik bazani modernizatsiya qilish)*.

Ta’lim sifatini oshirishda texnik jihozlash muhim ro‘l o‘ynaydi. Zamonaviy texnologiyalar – elektron ta’lim platformalari, virtual laboratoriylar, multimedia vositalari o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Shuningdek, o‘quv xonalari, laboratoriylar, kutubxonalar, axborot-resurs markazlarini zamon talablari darajasida modernizatsiya qilish orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrash, tahlil qilish va ilmiy-tadqiqot olib borish ko‘nikmalari shakllanadi.

Yuqoridagi yo‘nalishlarning barchasida o‘qituvchi shaxsi hal qiluvchi omil hisoblanadi. O‘qituvchining kasbiy malakasi, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini bilishi, innovatsion fikrashi va shaxsiy motivatsiyasi bevosita ta’lim sifati darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli o‘qituvchilarning doimiy kasbiy rivojlanishi, ularning moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Ta’lim sifatini oshirish — bu kompleks yondashuvni talab qiluvchi jarayondir. Unda o‘quv dasturlarini yangilash, xalqaro tajribani joriy qilish, texnologik infratuzilmani rivojlantirish, eng asosiysi, o‘qituvchi shaxsini rivojlantirish kabi yo‘nalishlar o‘zaro bog‘liq holda amalga oshirilishi zarur.

Faol, bilimli va yuksak ma’naviyatli avlodni tarbiyalash uchun zamonaviy ta’lim tizimini yaratish — barchamizning ustuvor vazifamizdir.

Bu yo‘nalishlar orqali ta’lim sifati faqat nazariy asosda emas, balki amaliy jihatdan ham kafolatlanishi ko‘zda tutilgan.

Ta’lim sifatini oshirish yo‘lidagi davlat siyosatining amaliy ifodasi sifatida bir necha muhim me’yoriy hujjatlar qabul qilingan:

- *PQ-2909-son qaror* (20.04.2017): oliy ta’limda sifatni boshqarish bo‘yicha ichki va tashqi baholash tizimlarini joriy etish, oliy o‘quv yurtlari reytingini shakllantirish, ta’lim sifatini xalqaro standartlarga mos ravishda oshirish choralari belgilangan.
- *PF-60-son farmon* (28.01.2022): “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida ta’lim tizimining har bir bosqichida sifat monitoringini joriy etish, pedagoglarning malakasini oshirish va ta’lim infratuzilmasini takomillashtirish choralari belgilab berilgan.
- *PQ-470-son qaror* (13.10.2022): umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining reyting asosida baholash tizimi joriy etilib, sifat ko‘rsatkichlariga asoslangan milliy reyting indikatorlari ishlab chiqildi.



Ta’lim sifatini kafolatlashda quyidagi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar muhim ahamiyatga ega:

- *Davlat ta’lim standartlari (DTS)*: har bir ta’lim bosqichida egallanadigan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni belgilab beradi. DTS asosida o‘quv jarayoni baholanadi, muassasa faoliyati monitoring qilinadi.
- *Baholash mezonlari bo‘yicha yo‘riqnomalar*: umumta’lim maktablari, kasb-hunar maktablari, kollej va oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar va

o‘quvchilar faoliyatini aniq indikatorlar asosida baholash tizimlarini tartibga soladi.

Davlat tomonidan ta’lim sifatini ta’minlashda qo‘llaniladigan kafolatlar turli shakl va mexanizmlar asosida faoliyat yuritadi. Bu shakl va mexanizmlar normativ-huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, metodologik va monitoring asosida belgilanadi. Quyida ularning har biri batafsil ko‘rib chiqiladi:

Davlat ta’lim sifati bo‘yicha o‘z majburiyatini qonunchilik hujjatlari orqali mustahkamlab boradi. Jumladan, Konstitutsiya, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, davlat ta’lim standartlari (DTS) va boshqa me’yoriy hujjatlar orqali amalga oshiriladi.

Ta’lim muassasalari davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladi.

Xususan:


- ❖ umumta’lim maktablari, kasb-hunar maktablari, texnikumlar va OTMlarga ajratiladigan bazaviy mablag‘lar;
- ❖ pedagog xodimlarning oylik ish haqi va ijtimoiy paketlari;
- ❖ iqtidorli o‘quvchilar uchun davlat granti asosidagi o‘qish imkoniyati;
- ❖ “Yoshlar daftari” va “Temir daftar” orqali qo‘srimcha moddiy yordamlar;
- ❖ xalqaro loyihalar (World Bank, UNICEF, ADB) doirasida grant va texnik yordamlar.



Davlat tomonidan ta’lim jarayonining mazmuniy jihatdan to‘g‘ri va sifatli olib borilishi bevosita institutsional kafolatlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu kafolatlar, avvalo, o‘quv jarayonining huquqiy, metodik va baholovchi asoslarida o‘z aksini topadi.

Har bir ta’lim bosqichi uchun ta’lim mazmuni, o‘quv yuklamasi, kompetensiyalar va baholash mezonlari aniq belgilab qo‘yiladi. DTSga asosan barcha o‘quv rejalarini va dasturlar ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Darsliklar ilmiy-metodik kengashlar va maxsus muvofiqlashtiruvchi organlar tomonidan ekspertizadan o‘tkaziladi. Bu jarayon mazmuniy xatoliklarning oldini olish,

yangilanish va xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qiladi. Ta’lim muassasalari faoliyatini baholashda ichki va tashqi monitoring asosida sifatni aniqlash mexanizmlari ishlab chiqilgan. Akkreditatsiya jarayoni muassasa talab darajasiga javob berishini aniqlaydi. Talabalar bilimini mustaqil baholovchi mexanizmlar — CEFR (til bilish darajalari), milliy testlar, mutaxassislik imtihonlari orqali amalga oshiriladi. Bu indikatorlar yordamida o‘quv natijalari ob’yektiv ravishda aniqlanadi.



Ta’lim sifatining davlat kafolati sifatida eng muhim jihatlaridan biri bu — doimiy baholash va monitoring mexanizmlarining mavjudligidir. Ular orqali davlat nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini, balki undagi holatlarning tahliliy nazoratini ham olib boradi. Davlat tomonidan ta’lim sifati monitoringi va kafolatlari tizimli yondashuv asosida boshqariladi. Normativ-huquqiy asoslar, moliyalashtirish siyosati, institutsional monitoring va metodik nazorat vositalari birgalikda ishlagan holda ta’lim tizimining barqarorligini, shaffofligini va raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Bu kafolatlar ta’lim oluvchilar huquqlarini himoya qilish bilan birga, ta’lim sifatini oshirish va uni xalqaro mezonlarga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Milliy va xalqaro kafolatlar tizimi o‘zaro uyg‘unlikda faoliyat olib borar ekan, ta’lim sifatining holatini tahlil qilishda ichki nazorat mexanizmlariga tashqi baholash vositalari qo‘srimcha aniqlik kiritadi. Bu esa ta’lim sohasining xalqaro maydonda tan olinishiga, raqobatbardosh kadrlar yetishtirishga, eng asosiysi, ta’lim oluvchining huquqlarini to‘laqonli ta’minlashga xizmat qiladi.

Ta’lim sifatini ta’minlash har bir zamonaviy jamiyatning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, uning amalga oshirilishi bevosita davlatning kafolatlari

bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifati masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, bu borada konstitutsiyaviy va qonunchilik asoslari yaratilgan, milliy hamda xalqaro mezonlarga mos baholash tizimlari joriy etilmoqda.

Ta’lim sohasidagi davlat kafolatlari — bu fuqarolarning sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan siyosiy, huquqiy va tashkiliy mexanizmlar majmuasidir. Ular ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida izchil qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Xususan, ta’lim standartlarining ishlab chiqilishi, milliy baholash tizimining takomillashuvi, xalqaro reytinglarda ishtirok etish orqali ta’lim sifatiga bo‘lgan talablar ortmoqda.

Shu bilan birga, davlat tomonidan ta’limga ajratilayotgan mablag‘larning oshirilishi, o‘qituvchilar maqomining yuksaltirilishi, o‘quv dasturlarining yangilanishi va monitoring tizimining joriy qilinishi — bularning barchasi ta’lim sifati kafolatining amaliy ifodasidir. Milliy va xalqaro kafolat tizimlari o‘zaro integratsiyalashgan holda ishlashi esa O‘zbekiston ta’lim tizimining global maydondagi raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Natijada davlat kafolatlari ta’lim sohasida tizimli va barqaror sifatni shakllantirish, inson kapitalini rivojlantirish, ilm-fan va innovatsiyani ilgari surish yo‘lidagi asosiy omilga aylanayotir.

Ta’lim sifati va uni kafolatlash masalasi har bir rivojlangan davlatning ustuvor strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Sifatli ta’lim — bu jamiyat taraqqiyotining asosi, inson kapitalini rivojlantirishning omili va raqobatbardosh millatni shakllantirish garovidir. Shu bois O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifati bilan bog‘liq huquqiy, tashkiliy va institutsional kafolatlar tizimi shakllantirilgan bo‘lib, bu tizim ta’limning barcha bosqichlarida samaradorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Davlat siyosatida ta’lim sifati ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanib, uni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar davlat darajasida qat’iy huquqiy asoslar bilan mustahkamlangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, davlat ta’lim standartlari, Prezident farmonlari va

Hukumat qarorlari ta’lim sifatini ta’minlashning konstitutsiyaviy va qonunchilik asoslarini tashkil etadi.

Davlat kafolatlari o‘z mazmuniga ko‘ra, ta’lim olish huquqini amalda ta’minlash, ta’lim xizmatlarining ochiqligi, sifat ko‘rsatkichlarining oshirilishi va o‘qituvchilar mehnatining munosib rag‘batlantirilishi kabi shakllarda namoyon bo‘ladi. Ushbu kafolatlar moliyaviy, tashkiliy, pedagogik va ijtimoiy yo‘nalishlarda kompleks mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa, davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag‘larning oshirilishi, o‘qituvchilarning maqomini belgilovchi siyosatlar va baholash tizimlarining takomillashuvi bu borada muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, ta’lim sifatini ta’minlashda milliy va xalqaro kafolatlar tizimi uyg‘un holda amal qiladi. Milliy baholash tizimlari orqali ichki monitoring amalga oshirilsa, xalqaro reytinglar, akkreditatsiyalar va standartlar ta’lim muassasalarining global mezonlar bo‘yicha faoliyat yuritishini ta’minlaydi. Bu esa O‘zbekiston ta’lim tizimining xalqaro maydondagi obro‘sini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, davlat tomonidan ta’lim sifatini kafolatlash — bu nafaqat siyosiy majburiyat, balki barqaror taraqqiyot, ijtimoiyadolat va ilm-fan yutuqlariga asoslangan keljak uchun zaruriy shartdir. Sifatli ta’limni davlat darajasida kafolatlash orqali bilimli, salohiyatli va ijtimoiy mas’uliyatli avlodni tarbiyalash imkoniyati yaratiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni. – O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagagi “Pedagogning maqomi to‘g‘risida” O‘RQ-901-son Qonuni. – O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami, 2024.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi

“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami, 2022.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami, 2019.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022 – 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami, 2022.

6. HEMIS axborot tizimi rasmiy sahifasi: <https://hemis.uz>
7. OECD. PISA 2022 Results. <https://www.oecd.org/pisa>
8. IEA. TIMSS & PIRLS Results. <https://www.iea.nl>



Nazorat savollari:

1. Ta’lim sifati deganda nimani tushunasiz? Bu tushuncha qanday omillarga bog‘liq?
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ta’lim sifati bo‘yicha qanday kafolatlar berilgan?
3. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning ta’lim sifati bilan bog‘liq moddalar niyalardan iborat?
4. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ta’lim sifatini oshirishda qanday o‘ringa ega?
5. PQ-2909, PF-60 va PQ-470 qarorlarida ta’lim sifati bilan bog‘liq qanday vazifalar belgilangan?



Amaliy topshiriqlar:

1. Vaziyatli tahlil:

Siz tuman xalq ta’limi bo‘limi xodimisiz. Tuman maktabalarining sifat ko‘rsatkichlari pasaygan. Sizga muammoga yechim topish vazifasi yuklangan. Mahalliy va xalqaro monitoring tizimlariga asoslanib, choralarni ishlab chiqing.

2. Normativ hujjat tahlili:

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (2020)ning 4 va 9-moddalarini o‘qing va ularni ta’lim sifatini kafolatlash bilan bog‘liq jihatlari bo‘yicha tahlil qiling.

3. Taqqoslash jadvali tuzish:

DTS asosidagi milliy baholash tizimini PISA tizimi bilan taqqoslang. Ularning farqli va umumiy tomonlarini jadvalga joylashtiring.

4. Onlayn monitoring tizimini baholash:

hemis.uz yoki mahorat.uz saytiga kirib, u yerda qanday ko‘rsatkichlar orqali monitoring yuritilishi, shaffoflik darajasi va foydalanuvchi qulayligi haqida yozma tahlil tayyorlang.

5. Xalqaro reyting tahlili:

Tanlangan bir OTM (masalan, Toshkent davlat pedagogika universiteti yoki Toshkent axborot texnologiyalari universiteti)ning QS yoki Webometrics reytingidagi o‘rnini aniqlang. Reytingdagi o‘ringa ta’sir qiluvchi mezonlarni aniqlab yozing.

II BOB. TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH JARAYONI

2.1 TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH TUSHUNCHASI

Reja:

1. Ta'lism sifatini boshqarish tushunchasi va zarurati
2. Ta'lism sifatini boshqarishning milliy modeli
3. Ta'lism sifatini boshqarishda davlat va nodavlat sub'yektlar
4. Sifat menejmenti yondashuvlari
5. Zamonaviy boshqaruv texnologiyalari va raqamli tizimlar

Tayanch so'zlar: *boshqaruv, sifat nazorati, monitoring, strategik rejalashtirish, menejment tizimi, indikatorlar, sifat menejmenti modeli.*

Ta'lism sifatini boshqarish — bu ta'lism tizimi faoliyatining barcha bosqichlarida belgilangan sifat mezonlariga erishishni ta'minlovchi strategik jarayon bo'lib, u rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, amalga oshirish va monitoring bosqichlarini o'z ichiga oladi. Bu boshqaruv faoliyati o'quvchi (yoki talaba), o'qituvchi, o'quv dasturi, ta'lism muassasasi, boshqaruv tuzilmalari va umuman ta'lism tizimining butun infratuzilmasiga taalluqlidir. Ta'lism sifatini boshqarish — bu ma'muriy buyruqbozlikdan farqli o'laroq, raqamli tahlil, monitoring, strategik rejalashtirish va ishtirokchilik asosidagi ilmiy asoslangan faoliyatdir. U nafaqat ta'lism jarayonini boshqaradi, balki uning samarasini, ijtimoiy foydasini va xalqaro miqyosdagi maqomini belgilab beradi.

Ta'lism sifati — bu ta'lism jarayonining natijasi sifatida o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarining ijtimoiy, iqtisodiy va shaxsiy ehtiyojlarga mos darajada shakllanishidir. Bu tushuncha nafaqat o'quv dasturlarining mazmuni, balki o'qituvchilar malakasi, o'quv muhiti, ta'lism infrastrukturasi va boshqaruv tizimiga ham bog'liqdir.

Zamonaviy ta'lism jarayonida sifatni faqatgina yakuniy natijalar orqali emas, balki butun ta'lism jarayonining har bir bosqichi bo'yicha nazorat qilish zaruriyati mavjud. Bu holat ta'lism sifatini boshqarish konsepsiyasini shakllantirishga asos bo'ladi.

Ta’lim jarayonining turli bosqichlarida sifatsizlik yoki notejislikni aniqlash va bartaraf qilish orqali o‘quvchi yoki talabaning mustahkam bilim egallashini ta’minlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Global mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlash uchun ta’lim sifatining xalqaro talablar darajasida tashkil etilishi zarur. Davlat va jamiyatning ehtiyojiga mos, amaliy bilim va ko‘nikmalarga ega, innovatsion fikrlaydigan kadrlar tayyorlash uchun sifatli boshqaruv muhim ahamiyatga ega. PISA, TIMSS, QS, THE kabi xalqaro baholash tizimlarida muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun ichki sifat boshqaruvi barqaror, tahliliy va real bo‘lishi shart.

Ta’lim sifatini boshqarishning asosiy tamoyillari:

Uzlucksizlik — sifatni oshirish jarayoni doimiy va bosqichma-bosqich takomillashtirib borilishi lozim. Sifat bir martalik natija emas, balki uzlucksiz rivojlanishdir.

Tizimlilik — har bir tarkibiy bo‘g‘inning (o‘qituvchi, o‘quv dasturi, baholash, resurslar va boshqalar) o‘zaro bog‘liq holda ishlashi ta’lim sifatining yaxlit nazoratini ta’minlaydi.

Ochiqlik va shaffoflik — ta’lim sifatini baholashda va qarorlar qabul qilishda ma’lumotlarning ochiq, aniq va raqamli asosda taqdim etilishi ishonchni oshiradi.

Natijaga yo‘naltirilganlik — ta’lim tizimi faqat jarayon emas, balki o‘quvchining hayotga tayyorlanish darjasini, bilim va ko‘nikma natijalari orqali baholanadi.

Ishtirokchilik va hamkorlik — barcha ishtirokchilarning — o‘qituvchi, o‘qituvchi, ota-onasi, boshqaruv organlari — faol ishtiroki va o‘zaro aloqasi boshqaruvda ochiqlik va mas’uliyatni oshiradi.

Dunyo miqyosida rivojlangan mamlakatlar ta’lim sifatini boshqarishda quyidagi yondashuvlarga tayanadi:

- ❖ Finlyandiya – o‘qituvchilarning yuqori malakasi va muxtorligi
- ❖ Singapur – qat’iy monitoring va yuksak baholash tizimi
- ❖ Yaponiya – o‘z-o‘zini baholash va hayot davomida ta’lim falsafasi

- ❖ AQSh – akreditatsiya agentliklari orqali doimiy tashqi monitoring
- ❖ Yevropa Ittifoqi – ESG (Standards and Guidelines for Quality Assurance) tamoyillari asosida sifat kafolati.



Bu tajribalar O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun ham muhim o‘rganish ob’ektidir.

Har bir davlat o‘zining ijtimoiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy kontekstiga mos ta’lim siyosatini yuritadi. Ta’lim sifatini boshqarishning milliy modeli – bu mamlakat ichki sharoitlariga moslashtirilgan, qonunchilik, me’yoriy-huquqiy asoslar, pedagogik an’analar, infratuzilma va resurslarga asoslangan yagona tizimdir.

Milliy model yaratishdagi maqsadlar:

- Milliy manfaatlar va qadriyatlarni inobatga olish;
- Davlat siyosati bilan uyg‘unlashtirilgan ta’lim sifatini kafolatlash;
- Xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish;
- Ta’lim sifati bo‘yicha o‘z-o‘zini baholash va rivojlantirish.

O‘zbekiston ta’lim sifatini boshqarish tizimi quyidagi asosiy tamoyillarga tayangan holda shakllantirilmoqda:

Tamoyil	Mazmuni
Qonuniylik va normativlik	Ta’lim sifati davlat qonun va me’yorlariga asoslangan holda boshqariladi
Ochiqlik va shaffoflik	Sifat monitoringi, reytinglar, natijalar ochiq e’lon qilinadi
Moddiy-texnik bazaga	Sifat bahosi infratuzilma va sharoitlar bilan bog‘liq

Tamoyil	Mazmuni
asoslanganlik	holda ko‘riladi
Talaba/yoshlar markazligi	Talabalarning ehtiyojlari va fikri inobatga olinadi
Innovatsion yondashuv	Raqamli texnologiyalar, yangi metodikalar, ilg‘or tajribalar joriy qilinadi
Kasbiy rivojlanish kafolati	O‘qituvchi va pedagoglar doimiy malaka oshirib boradilar

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida sifatni boshqarish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Mamlakatda shakllanayotgan milliy ta’lim sifatini boshqarish modeli o‘ziga xos kompleks va tizimli yondashuvga asoslangan bo‘lib, quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

Me’yoriy-huquqiy asoslar

Ta’lim sifatini boshqarishning mustahkam poydevorini me’yoriy-huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Bular quyidagilardan iborat:

2020-yilda yangi tahrirda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun ta’lim sohasidagi sifat talablarini huquqiy jihatdan mustahkamlab berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’limga oid farmonlari va qarorlari, xususan, ta’lim sifatini oshirish va reyting tizimini joriy etishga qaratilgan hujjatlar milliy modelning yo‘nalishini belgilab bermoqda.

Vazirlik va idoralar tomonidan ishlab chiqilgan sifat baholash standartlari va reglamentlar, oliy va umumiy o‘rta ta’limdagи monitoringning normativ asosini tashkil qiladi.

Davlat ta’lim standartlari va malaka talablari

Ta’lim jarayonining samaradorligi va sifati standartlashtirish orqali kafolatlanadi. Har bir ta’lim bosqichi uchun alohida Davlat ta’lim standartlari (DTS) ishlab chiqilgan bo‘lib, ular o‘quv dasturlarining mazmuni, o‘quv yuklamasi, baholash tizimi va o‘quv natijalariga qo‘yiladigan talablarni belgilab beradi. So‘nggi yillarda DTSlar kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta

ishlab chiqilmoqda. Bu esa o‘quvchilarning nafaqat bilim, balki amaliy ko‘nikmalarni ham egallashiga yo‘naltirilgan yondashuvni ifodalaydi.

Har bir kasb yoki mutaxassislik bo‘yicha malaka talablari tasdiqlanib, o‘quvchi/talabaning yakuniy tayyorgarlik darajasini belgilaydi.

Ichki sifat nazorati tizimi

Ta’lim muassasalarida sifatni boshqarishning ichki tizimi mavjud bo‘lib, u asosan o‘zini o‘zi baholashga yo‘naltirilgan. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

O‘quv-uslubiy kengashlar — o‘quv jarayonini tashkil etish, fanlararo muvofiqlik va metodik ta’midot ustidan nazoratni amalga oshiradi.

O‘quv rejalari, dasturlar va tarqatma materiallar asosida ichki monitoring tizimi faol ishlaydi.

O‘qituvchilarning faoliyati ularning dars berish sifati, ilmiy faoliyati va talaba fikrlari asosida baholanadi. Shuningdek, attestatsiya va reyting tizimi ham mavjud.

Tashqi baholash tizimi

Milliy modelda sifatni kafolatlashda tashqi baholash tizimlari alohida o‘rin tutadi. Ular:

Milliy reyting tizimlari yordamida ta’lim muassasalari o‘zaro solishtirilib, samaradorlik ko‘rsatkichlari e’lon qilinadi. Davlat attestatsiyasi va akkreditatsiya jarayonlari orqali o‘quv muassasasining faoliyati holati va rivojlanish darajasi baholanadi. Mustaqil baholash markazlari (masalan, Bilim va malakalarni baholash agentligi, Nodavlat ta’lim muassasalarini nazorat qilish boshqarmasi – NTMU) tomonidan sinovlar, testlar va muvofiqlik baholash ishlari olib boriladi.

Raqamlı platformalar

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamlı texnologiyalar muhim ro‘l o‘ynaydi. O‘zbekiston ta’lim sifatini boshqarish modelida quyidagi platformalar faol qo‘llaniladi:

my.edu.uz – Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarining yagona raqamlı portalı bo‘lib, unda o‘quv rejalari, baholashlar va hisobotlar integratsiyalashgan.

LMS tizimlari (masalan, Moodle, Edmodo) orqali onlayn darslar tashkil etilib, o‘quvchilarning ishtiroki, topshiriqlari va baholari monitoring qilinadi.

Elektron baholash, virtual laboratoriylar va test sinovlari orqali natijalar tez, shaffof va statistik tahlillarga asoslangan holda baholanadi.

O‘zbekistonda ta’lim sifatini boshqarishning milliy modeli tizimli, qonuniy va raqamli yondashuvlar asosida shakllanmoqda. Har bir tarkibiy qism o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, ta’lim jarayonining sifati, samaradorligi va shaffofligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu modelni rivojlantirish, xalqaro tajribalarni milliy sharoitga uyg‘unlashtirish orqali yanada takomillashtirish imkoniyati mavjud.

Ta’lim sifatini boshqarish – bu nafaqat ta’lim muassasalari rahbariyatining, balki jamiyatdagi turli ishtirokchilarning – davlat va nodavlat sub’yektlarining hamkorlikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladigan murakkab tizim hisoblanadi. Davlat sub’yektlari – bu davlat hokimiyati va boshqaruvining vakolatli organlari bo‘lib, ta’lim tizimining rivoji, normativ-huquqiy tartibga solinishi, moliyaviy ta’minoti, strategik rejalahtirilishi hamda sifat monitoringi uchun mas’ul bo‘lgan rasmiy institutlar majmuasidir. Ta’lim sohasidagi davlat sub’yektlariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Bilim va malakalarni baholash agentligi, Milliy akkreditatsiya markazlari va boshqa tegishli davlat idoralari kiradi.



Davlat sub’yektlari davlat ta’lim sifatini belgilovchi qonunlar, me’yoriy hujjatlar, standartlar va litsenziya talablari orqali umumiy tartib va yagona yondashuvni shakllantiradi. Davlat muassasalari (Vazirlik, Davlat inspeksiyasi

va h.k.) ta’lim sifati ustidan tizimli monitoring olib boradi, attestatsiyalar, akreditatsiyalar orqali sifat kafolatini ta’minlaydi. Davlat byudjeti hisobidan ta’lim sohasini moliyalashtiradi, grantlar, stipendiyalar, infratuzilma rivoji uchun sarmoya ajratadi. Davlat ta’lim siyosatini belgilaydi, milliy va xalqaro darajadagi integratsiyani boshqaradi, raqamli transformatsiya va innovatsion loyihalarni yo‘lga qo‘yadi.

Nodavlat sub’yektlari – bu davlat organlariga tegishli bo‘lmagan, biroq ta’lim sifatini boshqarishda ishtirok etuvchi, fuqarolik jamiyati institutlari, xususiy ta’lim muassasalari, professional uyushmalar, xalqaro tashkilotlar, mustaqil baholash agentliklari kabi jismoniy va yuridik shaxslar tizimidir. Ular ta’lim jarayonida mustaqil yoki sheriklik asosida qatnashadi, sifat monitoringi, innovatsiyalar, akkreditatsiya, o‘qituvchilar malakasini oshirish, ijtimoiy fikrni shakllantirish kabi yo‘nalishlarda faol bo‘ladilar.

Nodavlat sub’yektlar xususiy ta’lim muassasalari va NNTlar (nodavlat notijorat tashkilotlari) ta’limga yangicha yondashuvlar, interaktiv metodlar va zamonaviy texnologiyalarni olib kiradi. Nodavlat sub’yektlarining faol ishtiroki davlat sektorini ham yanada samarali va sifatli faoliyat yuritishga undaydi. Nodavlat tashkilotlar, jamoatchilik va ota-onalar ta’lim sifatiga baho berish, mustaqil reytinglar tuzish, fikr-mulohazalar bildirishda faol ishtirok etadi. Xususiy sektor ko‘pincha xalqaro grantlar, dasturlar va hamkorlik orqali xorijiy ilg‘or tajribalarni joriy etishga yordam beradi.

Ta’lim sifatini boshqarishda davlat va nodavlat sub’yektlari bir-birini to‘ldiruvchi va muvofiqlashtiruvchi ro‘l o‘ynaydi. Davlat – tizim barqarorligini va umumiy yo‘nalishni belgilasa, nodavlat sektor – innovatsiyalar, erkinlik va tanlov imkoniyatlarini yaratadi. Ularning samarali hamkorligi orqali ta’lim tizimi raqobatbardosh, ochiq va natijaga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Davlat sub’yektlari ta’lim strategiyasini belgilash va siyosat yuritish kabi bir qancha vazifalarni bajaradi.

Jumladan:


- Ta’lim standartlari va sifat ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish Davlat OTM, maktab va boshqa muassasalar uchun majburiy o‘quv rejalari, fan dasturlari, o‘qituvchi malaka talablarini belgilaydi.
- Davlat ta’limning uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqadi. Masalan, “Yangi O‘zbekiston – yangi ta’lim” konsepsiysi kabi milliy dasturlar orqali sifatli ta’limga yo‘naltirilgan islohotlar olib boriladi.
- Kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash. Ta’lim sifatini oshirish uchun o‘qituvchilarni doimiy malaka oshirish kurslariga jalb qilish, pedagogik innovatsiyalarni o‘rgatish bo‘yicha davlat dasturlari mavjud.
- **Aholi va hudud ehtiyojlariga yo‘naltirilgan rejalashtirish.** Davlat mahalliy va mintaqaviy ehtiyojlardan kelib chiqib ta’lim tarmoqlarini tashkil qiladi, ayniqsa, chekka hududlarda imkoniyatlar tengligini ta’minalashga harakat qiladi.
Nodavlat sub’yektlar esa;
- **Ta’limda tanlov imkoniyatini yaratish.** Xususiy maktablar, texnikumlar, universitetlar ta’limning turli yo‘nalishlarida o‘quvchilarga alternativ imkoniyatlar taqdim etadi (masalan, xalqaro dasturlar, STEM yo‘nalishlari, tillar).
- **Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.** Nodavlat tashkilotlar, ota-onalar qo‘mitalari, mustaqil ekspertlar ta’lim sifatini baholash, taklif va mulohazalar berish orqali ta’lim tizimiga bevosita ta’sir o‘tkaza oladi.
- **Tashqi baholash tizimlarining rivoji.** Mustaqil reyting agentliklari, monitoring markazlari ta’lim muassasalarini xolis baholab, ularni raqobatga undaydi. Bu orqali sifatni oshirishga turtki bo‘ladi.
- **Xayriya, grant va investitsiyalar orqali qo‘llab-quvvatlash.** Ko‘plab nodavlat tashkilotlar iqtidorli talabalarni qo‘llab-quvvatlash, ta’lim uchun sharoit yaratish, texnologiyalar joriy qilishda faol ishtirok etmoqda (masalan: “El-yurt umidi” jamg‘armasi, fondlar, IT-parklar bilan hamkorlik).

Ilmiy asosli farqlash:

Ko‘rsatkich	Davlat sub’yeqtleri	Nodavlat sub’yeqtleri
Huquqiy maqomi	Konstitutsiyaviy va rasmiy Mustaqil yoki ijtimoiy-huquqiy vakolatga ega	Monitoring, tashqi baholash, innovatsiya, jamoatchilik ishtiroki
Vazifasi	Strategik boshqaruv, normativ tartib, moliyalashtirish	
Ta’sir doirasi	Majburiy ijro etiluvchi qarorlar Tavsiyaviy, maslahat, sheriklik chiqaradi	asosida ishlaydi
Moliyaviy manbasi	Davlat byudjeti, rasmiy Xususiy mablag‘lar, a’zolik grantlar	badallari, donorlar

Zamonaviy boshqaruv texnologiyalari va raqamli tizimlar ta’lim sifatini oshirishda kuchli vosita hisoblanadi. Ular ta’lim jarayonini optimallashtirish, nazorat qilish va rivojlantirish imkonini beradi. Har qanday ta’lim muassasasi raqamli transformatsiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘ysa, natijada ta’lim sifati, samaradorligi va raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshadi. Raqamli texnologiyalar ta’lim sifati monitoringini osonlashtiradi, ma’lumotlar asosida qaror qabul qilishga yordam beradi.

- Elektron jurnal va kundaliklar (MyEdu, EduPage, Maktab.uz va boshqalar)
- Davomat, baholash, uy vazifalarining onlayn yuritilishi.
- Ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasida tezkor aloqa ta’minlanadi.



Zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning afzalliklari:

Ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash:

Raqamli tizimlar orqali ta'lif jarayonining barcha bosqichlari ochiq va shaffof bo'ldi. Elektron platformalar va monitoring tizimlari orqali o'quvchilarning baholari, ishtiroki, darslarga tayyorgarligi aniq ko'rindi. Bu ota-onalar, o'qituvchilar va ta'lif muassasasi rahbariyati o'rtasida ishonch va hamkorlikni mustahkamlaydi. Shuningdek, ma'lumotlarning shaffofligi korrupsiya va noto'g'ri boshqaruv holatlarining oldini oladi.

Tezkor axborot almashinuvi:

Zamonaviy raqamli vositalar yordamida ta'lif jarayonida yuzaga kelgan o'zgarishlar, muammolar va yutuqlar haqidagi ma'lumotlar real vaqtda almashiladi. Bu esa o'qituvchilar, talaba va ota-onalarga tezkor javob berish, kerakli qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish imkonini yaratadi. Shuningdek, ta'lif jarayonining sifatini doimiy nazorat qilish va kerakli joylarda darhol tuzatishlar kiritish imkoniyati paydo bo'ldi.

Boshqaruv qarorlarining asoslanganligi:

Raqamli tizimlar orqali yig'ilgan ma'lumotlar aniq statistik tahlil qilinadi, bu esa

ta’lim jarayonining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Qaror qabul qiluvchilar (rahbarlar, metodistlar) o‘z faoliyatlarini real ma’lumotlar asosida rejalashtiradi va takomillashtiradi. Bu nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki resurslarni maqbul taqsimlashga ham olib keladi.

Talaba va o‘qituvchilar faoliyatini aniqlik bilan tahlil qilish imkoniyati: Zamnaviy texnologiyalar yordamida har bir talabaning individual rivojlanish sur’ati, bilim darajasi va qiyinchiliklari batafsil o‘rganiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning dars samaradorligi, metodik yondashuvi va ta’lim sifatiga qo‘sishgan hissasi baholanadi. Bu holat shaxsiylashtirilgan ta’lim jarayonini yaratish, zaif tomonlarni aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan qo‘sishma chora-tadbirlarni belgilash imkonini beradi.

Raqamli tizimlar orqali ta’lim jarayonining barcha bosqichlari ochiq va shaffof bo‘ladi. Elektron platformalar va monitoring tizimlari orqali



o‘quvchilarning baholari, ishtiroki, darslarga tayyorgarligi aniq ko‘rinadi. Bu ota-onalar, o‘qituvchilar va ta’lim muassasasi rahbariyati o‘rtasida ishonch va hamkorlikni mustahkamlaydi. Shuningdek, ma’lumotlarning shaffofligi korrupsiya va noto‘g‘ri boshqaruv holatlarining oldini oladi.

Zamnaviy raqamli vositalar yordamida ta’lim jarayonida yuzaga kelgan o‘zgarishlar, muammolar va yutuqlar haqidagi ma’lumotlar real vaqtda almashiladi. Bu esa o‘qituvchilar, talaba va ota-onalarga tezkor javob berish, kerakli qo’llab-quvvatlash choralarini ko‘rish imkonini yaratadi. Shuningdek, ta’lim jarayonining sifatini doimiy nazorat qilish va kerakli joylarda darhol tuzatishlar kiritish imkoniyati paydo bo‘ladi.



Raqamli tizimlar orqali yig‘ilgan ma’lumotlar aniq statistik tahlil qilinadi, bu esa ta’lim jarayonining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Qaror qabul qiluvchilar (rahbarlar, metodistlar) o‘z faoliyatlarini real ma’lumotlar asosida rejalashtiradi va takomillashtiradi. Bu nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki resurslarni maqbul taqsimlashga ham olib keladi.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida har bir talabaning individual rivojlanish sur’ati, bilim darajasi va qiyinchiliklari batafsil o‘rganiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning dars samaradorligi, metodik yondashuvi va ta’lim sifatiga qo‘sghan hissasi baholanadi. Bu holat shaxsiylashtirilgan ta’lim jarayonini yaratish, zaif tomonlarni aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan qo‘srimcha chora-tadbirlarni belgilash imkonini beradi.

Ta’lim sifatini boshqarish — murakkab va tizimli jarayon bo‘lib, davlat siyosati, raqamli texnologiyalar, ichki va tashqi monitoring, sifat menejmenti modellarining uyg‘unligiga asoslanadi. U har bir ishtirokchining faol hamkorligida natijaga yo‘naltirilgan yondashuv orqali amalga oshirilishi kerak. Ta’lim sifatini boshqarish — bu ta’lim tizimi samaradorligini ta’minlashga qaratilgan kompleks va uzlusiz faoliyat bo‘lib, u ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida tizimlilik, izchillik va barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Mazkur boshqaruv jarayoni orqali nafaqat o‘quv jarayonining mazmuni va metodikasi, balki inson resurslari, infratuzilma, monitoring mexanizmlari va natijalarini baholash tizimi ham muvofiqlashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifatini boshqarishning milliy modeli mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi bilan uyg‘un holda ishlab chiqilgan bo‘lib, u davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri

sifatida qaraladi. Mazkur model markazlashgan boshqaruv, normativ-huquqiy tartibga solish, davlat ta’lim standartlariga asoslangan baholash tizimlarini o‘z ichiga oladi.

Ta’lim sifatini boshqarishda davlat sub’yektlari (vazirliklar, Ta’limni rivojlantirish markazi, Bilimni baholash markazlari) bilan bir qatorda nodavlat sub’yektlarning — jumladan, nodavlat ta’lim muassasalari, xususiy agentliklar, jamoatchilik birlashmalari va xalqaro tashkilotlarning ham faol ishtiroki ta’lim jarayonining ochiqligi, shaffofligi va raqobatbardoshligini ta’minlamoqda.

Bugungi kunda sifat menejmenti yondashuvlari (ISO, TQM, CAF va boshqalar) ta’lim muassasalarida keng qo’llanilmoqda. Bu yondashuvlar orqali ta’lim jarayoniga tizimli yondashish, natijaviylikka yo‘naltirish, manfaatdor tomonlar ehtiyojlarini hisobga olish va uzlusiz takomillashtirish prinsiplari joriy etilmoqda.

Shuningdek, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ta’lim tizimida zamonaviy boshqaruv vositalarini joriy etish imkonini bermoqda. Elektron kundaliklar, onlayn monitoring tizimlari, raqamli baholash platformalari, sun’iy intellekt va “Big Data” texnologiyalarining qo’llanilishi ta’lim sifatini real va tezkor boshqarishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, ta’lim sifatini samarali boshqarish — bu faqat ma’muriy jarayon emas, balki ilmiy asoslangan, raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan va manfaatdor tomonlar hamkorligiga asoslangan zamonaviy tizimdir. Bunday boshqaruv modeli orqali ta’lim sifati izchil oshib boradi va raqobatbardosh, ilg‘or fikrlovchi avlod tarbiyalanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son qarori. – O‘zbekiston Respublikasining qonun hujatlari to‘plami, 2020.
2. Mahorat.uz – pedagoglar reyting baholash platformasi: <https://mahorat.uz>
3. UNESCO (2022). Education 2030 – Framework for Action.

4. OECD (2022). Best Practices in Education Quality Management.
5. UNICEF (2021). Digital Tools for Inclusive Education.
6. GIZ (2020). Monitoring and Evaluation in Education Sector.
7. Mahalliy ta’lim boshqaruvi modellariga doir tahliliy hisobotlar (2021–2023).



Nazorat savollari:

1. Ta’lim sifatini boshqarish nima va nima uchun zarur?
2. Milliy modelda qanday tashkilotlar boshqaruvda ishtirok etadi?
3. Davlat va nodavlat sub’yektlarining ro‘llarini solishtiring.
4. ISO 21001 va TQM yondashuvlari o‘rtasidagi farq nima?
5. HEMIS va EduPage tizimlari qanday boshqaruv funksiyalarini bajaradi?



Amaliy topshiriqlar:

1. Siz o‘qituvchi sifatida maktabdagi sifat muammosini aniqlang va RBM asosida reja tuzing.
2. HEMIS tizimining vositalari orqali universitet reytingini qanday ko‘rib chiqish mumkin? Tahlil qiling.
3. ISO 21001 tizimining 3 asosiy prinsipini O‘zbekiston ta’limi misolida qo‘llab, yozma tahlil qiling.
4. Ta’lim muassasasini PDCA modeliga asoslanib boshqarish strategiyasini ishlab chiqing.
5. Mahorat.uz sayti orqali malaka baholash indikatorlari asosida o‘qituvchining yillik reytingini hisoblang.

2.2 TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH

Reja:

1. Ta'lism sifatining mohiyati va nazariy asoslari
2. Nazorat va baholash tizimlari: ichki hamda tashqi mexanizmlar
3. Ta'lism sifatini baholash usullari va vositalari
4. Raqamli texnologiyalar hamda ma'lumotlarni tahlil qilish roli
5. Uzluksiz monitoring va takomillashtirish strategiyalari

Tayanch so'zlar: *Sifat menejmenti, akkreditatsiya, indikator, ichki audit, tashqi audit, PISA, feedback, raqamli platforma, learning analytics, formativ baholash, summativ baholash, benchmarking, monitoring.*

Ta'lism sifati — bu ta'lism jarayonining maqsad va natijalariga moslik darajasidir. Ta'lism sifatini nazorat qilish va baholash ta'lism tizimining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning bilim darajasini baholash, o'qitish usullari va metodlarini yaxshilashga qaratilgan muhim jarayon hisoblanadi. Ta'lism sifatini baholash va nazorat qilish tizimi nafaqat o'quvchilarning bilimlarini, balki butun ta'lism tizimining samaradorligini o'lhash uchun ishlataladi.

Ta'lism sifatining mohiyati – bu o'quvchilarga berilayotgan bilimlarning samaradorligini, ta'lism tizimining maqsadlariga qanchalik mos kelishini va o'quvchilarning rivojlanishiga qanchalik hissa qo'shayotganini o'lhashdir. Ta'lism sifatining nazariy asoslari nafaqat bilimlarni o'lhashga, balki ta'lism jarayonida o'quvchi, o'qituvchi va boshqa ta'lism tizimlari o'rtafigi o'zaro munosabatlarga ham aloqador bo'ladi.

Ta'lism sifatini nazorat qilishda quyidagi nazariy yondashuvlar mavjud: Maxsus yondashuv — bu yondashuvda ta'lism sifatining aniqlanishi ta'lism tizimining ma'lum bir parametrlariga asoslanadi, masalan, o'quvchilarning bilim darjasи, ularning faolligi va darsga qiziqishi.

Nazorat tizimi – bu o‘quvchilarning bilimi, ko‘nikmalari va malakalarini baholash jarayonidir. Baholash tizimi esa ta’lim jarayonining sifatini o‘lchash va o‘quvchilarga berilgan bilimlarning darajasini aniqlash uchun ishlataladi.

Nazorat va baholash tizimlari, ichki hamda tashqi mexanizmlarning ta’lim sifatiga ta’siri ko‘plab omillarni o‘z ichiga oladi. Ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning bilimlarini yaxshilash uchun samarali nazorat va baholash tizimlari muhimdir. Ushbu tizimlar ichki va tashqi mexanizmlar orqali ta’lim tizimi va o‘quvchilarni o‘lchash va baholashda farqli yondashuvlarni taklif qiladi.

Ushbu tizimlar ikki asosiy mexanizmga bo‘linadi:

Ichki mexanizm	Tashqi mexanizm
O‘quv yurtining o‘zida amalga oshiriladigan baholash va nazorat jarayonlaridir. Bular o‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarni doimiy ravishda baholash, testlar o‘tkazish, darslarda faol ishtirok etishni nazorat qilish kabi faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Bu tizimda o‘quv muassasasi o‘zi ta’lim sifatini baholash va nazorat qilishga mas’uldir.	Bu mexanizmda ta’lim sifatini nazorat qilish va baholash jarayoni ta’lim muassasalaridan tashqarida, masalan, ta’lim vazirliklari, ta’lim tizimining nazoratchilari, xalqaro baholash tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Tashqi nazorat tizimi o‘quvchilarni yoki ta’lim muassasalarini yirik miqyosda baholaydi.
O‘zbekistonning ta’lim tizimida ichki baholashning ko‘plab shakllari mavjud, jumladan, o‘quvchilarni har semestrda sinovdan o‘tkazish va ularga o‘quv ko‘nikmalarini tahlil qilish.	Xalqaro baholash dasturlari, masalan, PISA (Program for International Student Assessment) testi orqali davlatlar o‘rtasida ta’lim sifatini solishtirish va tahlil qilish mumkin.



Ichki mexanizm ta’lim tizimining ichki organlari (o‘qituvchilar, o‘quv muassasalari, ta’lim boshqaruvi) tomonidan amalga oshiriladigan nazorat va baholash jarayonlari. Ichki mexanizmning ta’lim sifatiga ta’siri

quyidagi omillarga asoslanadi:

Ichki mexanizmning asosiy yondashuvi o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda o‘rganish va kuzatishdir. Doimiy baholash (yil davomida sinovlar, testlar, nazorat ishlarini o‘tkazish) o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi rivojlanishini tahlil qilish va ularga muayyan tahrirlar kiritish imkonini beradi. Bu jarayon o‘qituvchilarga o‘z metodikalarini optimallashtirishga va ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ichki mexanizmda o‘qituvchilar o‘z faoliyatini o‘zlashtirishda va ta’lim sifatini oshirishda katta ro‘l o‘ynaydi. O‘qituvchilar o‘zlarining ta’lim metodlari va darslarni tashkil etish yondashuvlarini baholash orqali o‘quvchilarga yuqori sifatli ta’lim berishlari kerak.

Ta’lim muassasalari, o‘z navbatida, o‘qituvchilarga doimiy ravishda o‘z malakalarini oshirish va professional o‘sish imkoniyatlarini taqdim etishi lozim.

Ichki mexanizm ta’lim sifatini oshirishda tizimli nazoratni ta’minkaydi. Ta’lim jarayonining har bir bosqichini nazorat qilish, o‘qituvchilarni o‘quvchilarni baholashda professional yondashuvlarni qo‘llashga undaydi. Bu orqali ta’limning sifatini yanada oshirish mumkin.

Tashqi mexanizm esa ta’lim tizimiga tashqaridan, masalan, hukumat, xalqaro tashkilotlar yoki mustaqil baholash agentliklari tomonidan taqdim etilgan nazorat va baholash tizimlaridir. Ushbu mexanizmlar ta’lim tizimining rivojlanishida va sifatini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi.

Xalqaro baholash tizimlari (masalan, PISA, TIMSS) orqali mamlakatlar ta’lim tizimining samaradorligini solishtiradilar. Bu tizimlar orqali o‘quvchilarni

global miqyosda baholash, ta’limning sifatini ko‘rish va tizimni takomillashtirish uchun muhim tahlillar olib boriladi. Masalan, xalqaro baholash dasturlari, masalan, PISA (Program for International Student Assessment), o‘quvchilarning matematika, ilm-fan va o‘qishdan bilim darajasini o‘lchaydi. PISA testi ta’lim tizimining sifatini yaxshilashga yordam beradi. Chunki ular davlatlarga ta’limdagi kamchiliklar va kuchli tomonlarini aniqlashda yordam beradi.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan tashqi nazorat o‘qituvchilarning va ta’lim muassasalarining faoliyatini ta’lim me’yorlariga muvofiqligini tekshiradi. Tashqi nazorat orqali o‘qituvchilar va muassasalar o‘z faoliyatini to‘g‘ri yo‘nalishda olib borishlari kerak.

Hukumat va tegishli organlar ta’lim sifatini oshirish uchun me’yoriy hujjatlar ishlab chiqadi va ta’lim muassasalarining faoliyatini nazorat qiladi.

Tashqi mexanizm ta’limning ijtimoiy va iqtisodiy samarasini nazorat qiladi. Bunda, davlatlararo ta’lim tizimlarining o‘zaro aloqalari va xalqaro hamkorlikning o‘rni ham katta. Ta’lim sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, bilim almashish va tajriba o‘rganish orqali ta’lim tizimining sifatini yaxshilash mumkin. Xalqaro ta’lim standartlari ta’lim tizimining umumiy sifatini va o‘quvchilarning bilimlarini qanday o‘lchash kerakligini belgilaydi. Bu standartlar ta’lim tizimining global miqyosda qanday rivojlanayotganini aniqlashda yordam beradi va mamlakatlarni ularning ta’lim tizimlari sifatida solishtirish imkoniyatini yaratadi.



Ichki va tashqi mexanizmlar o‘rtasidagi bog‘lanish ta’lim sifatining yanada samarali o‘lchovlarini ishlab chiqish uchun zarur. Ichki nazorat tizimi o‘quvchilarning real vaqt rejimida rivojlanishini kuzatish va kerakli

o‘zgarishlarni amalga oshirishga imkon beradi. Tashqi mexanizmlar esa ta’lim tizimining yirik miqyosda taqqoslash va global darajada baholashni amalga oshiradi.

Tashqi mexanizmlar ta’lim tizimining global miqyosda qanday rivojlanayotganini aniqlashda yordam beradi va ichki mexanizmlar esa tizimni yanada takomillashtirish uchun aniq tavsiyalar beradi.

Ichki va tashqi mexanizmlarning ta’lim sifatiga ta’siri katta. Ichki mexanizm o‘qituvchilarning va ta’lim muassasalarining samaradorligini doimiy ravishda kuzatib boradi va baholaydi. Tashqi mexanizmlar esa ta’lim tizimining sifatini yirik miqyosda tahlil qiladi va xalqaro standartlarga mos ravishda yaxshilash uchun zaruriy choralar ko‘radi. Ushbu mexanizmlar o‘zaro ta’sirda bo‘lib, ta’lim tizimining barcha jihatlarini doimiy ravishda takomillashtirishga yordam beradi.


Raqamli texnologiyalarning kundan kunga rivojlanishi hamda ularning ta’lim jarayonlariga integratsiyalashuvi, bilim olishning innovatsion metodlarini yaratilishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada ta’lim oluvchilar o‘z o‘quv jarayonini mustaqil boshqarish, raqamli vositalardan foydalanish va real muammolarni hal qilish uchun kompyuter modellashtirish kabi texnologiyalardan keng foydalanayotir.

Ta’lim sifatini baholash usullari va vositalari – bu ta’lim tizimining samaradorligini o‘lchash, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash, o‘qituvchilik metodlarini tahlil qilish hamda ta’lim tizimining sifatini yaxshilash

uchun ishlatiladigan muhim vositalardir. Ta’lim sifatini baholash usullari va vositalari turli metodologiyalarni o‘z ichiga oladi va ular nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini, balki o‘qituvchilarning pedagogik mahorati, ta’lim muassasasining infratuzilmasi, o‘quv dasturlari va ta’limning umumiyligi samaradorligini ham o‘lchaydi.



Quyida ta'lim sifatini baholash usullari bilan tanishib chiqamiz:



I-rasm.Ta'lim sifatini baholash usullari

Formativ baholash – bu o‘quvchilarni o‘qish jarayonida doimiy ravishda baholash, ya’ni ular o‘qishni davom ettirayotgan vaqtida ularning yutuqlarini tahlil qilish. Bu usul o‘quvchilarning bilimini yaxshilashga, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga imkon beradi. Formativ baholash o‘quvchilarga o‘z o‘rganish jarayonlarini mustahkamlash imkonini beradi. Masalan, dars jarayonida o‘quvchilarga tez-tez qisqa testlar o‘tkazish, savol-javoblar, guruhli muhokamalar va individual ishtirokni baholash formativ baholashning misollaridir.

Summativ baholash – bu o‘quvchilarning bilimini yakuniy, ya’ni o‘qish jarayonining oxirida baholashdir. Bu usul odatda imtihonlar yoki kurs ishlarini o‘z ichiga oladi va o‘quvchilarning ta’limdagi umumiy yutuqlarini ko‘rsatadi. Masalan, yil oxirida o‘tkaziladigan imtihonlar, sertifikatlash testlari, yakuniy kurs ishlari va diplom imtihonlari summativ baholashning misollaridir.

Kriteriyali baholashda o‘quvchilarni belgilangan mezonlar yoki standartlarga muvofiq baholash amalga oshiriladi. Bu usulda o‘quvchilarning natijalari aniq belgilangan ko‘rsatkichlar asosida o‘lchanadi va taqqoslanadi.



Masalan, o‘quvchilarni ilmiy

maqolalarni yozish, loyihalar yoki tajribalar orqali baholashda bu metoddan foydalanish mumkin. Bu usul o‘quvchilarning har birida kutilayotgan natijalar va standartlarga erishishini tekshiradi.

O‘quvchi-yo‘riqli baholashda o‘quvchilar bir-birini baholaydi. Bu metod o‘quvchilarga nafaqat o‘z bilimlarini baholash imkonini beradi, balki ularning fikrini boshqalar bilan taqqoslash orqali o‘rganish jarayonini yanada chuqurlashtiradi. Masalan, guruhli ishlar yoki prezentatsiyalar orqali o‘quvchilar bir-birini baholaydi. O‘quvchilarning fikrlaridan foydalanish, o‘zaro tahlil qilish va konstruktiv munosabatlar o‘rnatish imkoniyatini yaratadi.


Ta’lim sifatini baholash vositalari – bu o‘quvchilarning bilimlarini va ta’lim tizimining samaradorligini o‘lhash uchun ishlatiladigan vositalardir. Ushbu vositalar turli usullarda amalga oshiriladi va ta’lim jarayonining natijadorligi, o‘quvchilar va o‘qituvchilarning ishlash samaradorligini baholash uchun yordam beradi.

Ta’lim sifatini baholash vositalari – bu o‘quvchilarning bilimlari va ta’lim tizimining samaradorligini o‘lhash uchun ishlatiladigan vositalardir. Ushbu vositalar turli usullarda amalga oshiriladi va ta’lim jarayonining natijadorligi, o‘quvchilar va o‘qituvchilarning ishlash samaradorligini baholash uchun yordam beradi.



Ta’lim sifataini baholash vositalariga interaktiv testlar, savollar, aniq bir fan tarmog‘i bo‘yicha amaliy va nazariy topshiriqlar, ma’lumotlar tahlilini misol qilishimiz mumkin. Interaktiv testlar va kvizlar o‘quvchilarning bilimlarini o‘lhashda foydali vosita sifatida ishlatiladi. Bu vositalar nafaqat o‘quvchilarning bilimini tekshiradi, balki ular

uchun qiziqarli va rag‘batlantiruvchi bo‘ladi. Testlar turli shakllarda bo‘lishi mumkin, jumladan, testlar, savollar va yodlashga asoslangan vazifalar. Bu vositalar o‘quvchilarga o‘z bilimini tezda tekshirish, to‘g‘ri javoblarni ko‘rish va kelajakdagi o‘rganish jarayonlarini yaxshilash imkoniyatini yaratadi.



O‘quvchilarning fikr-mulohazalari va so‘rovnomalar o‘quv jarayonining sifatini baholashda samarali vositadir. O‘quvchilar darslar haqida fikr bildirishlari mumkin, bu orqali o‘qituvchilar o‘z metodologiyalarini yaxshilashlari mumkin. O‘quvchilar dars va o‘qituvchining pedagogik metodlari haqida so‘rovnomalar yordamida fikrlarini bildiradilar. Dars jarayonidan keyin o‘quvchilardan fikr olish orqali ta’limning samaradorligini baholash.

- Ushbu baholash vositalarini afzalliklariga to‘xtaladigan bo‘lsak;
- ✓ Ta’limning o‘zgarishlarini va takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan o‘zgarishlarni aniqlash.
 - ✓ O‘quvchilarning o‘rganish jarayonida qo‘llaniladigan metodlar haqida aniq va to‘g‘ri fikr olish.

Ta’lim sifatini baholash usullari va vositalari ta’lim tizimining samaradorligi, o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘qituvchilarning pedagogik mahorati va umumiyligi ta’lim jarayonini baholashda muhim vositalardir. Raqamli texnologiyalar va innovatsion baholash usullari orqali ta’lim jarayonini yanada samarali qilish va tizimning sifatini oshirish mumkin. Ushbu vositalar yordamida o‘quvchilar va o‘qituvchilarning muvaffaqiyatlarini doimiy ravishda tahlil qilish va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Raqamlı dunyo – bu zamonaviy jamiyatning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bilan chuqur integratsiyalashgan muhitidir. Ushbu

tushuncha, tezkor axborot almashinushi, real vaqt rejimida muloqot qilish imkoniyati, katta hajmdagi ma'lumotlarning keng tarqalishi hamda global internet va raqamli texnologiyalar yordamida dunyoning istalgan nuqtasiga ulanishni o'z ichiga oladi. Buning natijasida masofa va vaqt chegaralari qisqarib, jamiyatlar o'rtasidagi muloqot va axborot almashinushi tezlashmoqda. 2014-yilda internet foydalanuvchilarining ulushi 35 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 67,9 foizga yetishi kutilmoqda. Ya'ni, 2025-yilda dunyo aholisining qariyb uchdan ikki qismi internetdan foydalanyapti.



Bu o'zgarish raqamli dunyoning jamiyat turmush tarziga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi. Raqamli texnologiyalar jamiyatlar va ularning turmush tarziga yangi imkoniyatlar yaratib, barcha sohalarda o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bu jarayon ta'lim, iqtisodiyot, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda keng qamrovli transformatsiyalarni yuzaga keltiradi. Raqamli dunyo nafaqat ijtimoiy hayotda, balki iqtisodiyotda ham tubdan o'zgarishlarga olib kelmoqda. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, raqamli iqtisodiyot global yalpi ichki mahsulotning 15,5 foizidan ortig'ini tashkil etadi. Bu, raqamli iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotidagi muhim o'rnini ko'rsatadi.

Kelgusi o'n yillikda yaratiladigan yangi qiymatning 70 foizga yaqini raqamli platformalarga asoslangan biznes modellariga to'g'ri kelishi kutulmoqda. Bu o'zgarishlar raqamli texnologiyalarni qo'llovchi yangi biznes modellari va kompaniyalar sonining ortishini anglatadi. Raqamli dunyo nafaqat jamiyatning turmush tarzi, balki jahon iqtisodiyotini ham tubdan o'zgartirmoqda. Internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng tarqalishi,

o‘quvchilarga global bilimlarga ega bo‘lish, ish joylarida samarali muloqot qilish va yangi biznes modellari yaratish imkoniyatlarini taqdim etayotir. Raqamli iqtisodiyotning o‘sishi global miqyosda yangi qiymat yaratishning asosi bo‘lib, jamiyatda yangi imkoniyatlarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa ta’lim tizimiga ham o‘zgarishlarni kiritadi, sohani yanada interfaol, qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi.



Raqamli texnologiyalarning ta’limga integratsiyasi bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanib, o‘quv jarayonlarini samarali tashkil etishda muhim ro‘l o‘ynamoqda. So‘nggi yillarda bu texnologiyalar ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqib, innovatsion yechimlar orqali o‘quvchilarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirib boryapti. Xususan, shaxsiy kompyuterlar, planshetlar, smartfonlar va interaktiv doskalarining ta’lim muhitiga kiritilishi sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu texnologik yutuqlar nafaqat ta’lim muassasalarida, balki ta’limni boshqarish tizimlari (LMS), til o‘rganish ilovalari, kengaytirilgan va virtual reallik vositalari, shaxsiylashtirilgan repetitorlik dasturlari kabi yangi yo‘nalishlar bilan bog‘liq mahsulot va xizmatlarni taklif qilmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalarining taraqqiy etishi natijasida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirishda ko‘plab imkoniyatlar paydo bo‘ldi.

Onlayn ta’lim va masofaviy o‘qitish platformalari raqamli texnologiyalarning ta’lim sohasiga ta’sirining eng yorqin misollaridan biridir. 2010-yillardan boshlab, butun dunyoda ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC) ommalashib, 2012-yilda bir necha ming foydalanuvchiga ega bo‘lgan platformalar 2021-yilga kelib, 220 milliondan ortiq foydalanuvchiga yetgan.

2020-yilgi COVID-19 pandemiyasi davrida onlayn kurslarga talab keskin oshib, ko‘plab o‘quv muassasalari masofaviy ta’lim formatiga o‘tishga majbur bo‘ldi. UNESCOning 2023-yilgi Global Ta’lim Monitoring hisobotiga ko‘ra, 2021-yil holatiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 220 million kishi hech bo‘lmaganda bitta onlayn kursdan foydalangan. Bu tendensiya onlayn ta’lim platformalari va kurslarining mashhurligi ortib borayotganini ko‘rsatadi. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini turli jihatdan boyitmoqda.

Elektron resurslar (elektron darsliklar, videodarslar, interaktiv platformalar) o‘quvchilarga darsdan tashqari mustaqil o‘rganish imkoniyatini beradi. Simulyatsiyalar va virtual laboratoriylar murakkab tushunchalarni tajriba asosida o‘rganishga yordam beradi. Bu, o‘quvchilarga bilimlarni chuqurroq va samarali o‘zlashtirishga yordam beradi. Biroq, raqamli texnologiyalarni ta’limga tatbiq etishda ba’zi muammolar ham mavjud.

Raqamli tafovut tufayli, farzandlari onlayn ta’lim olishi uchun zarur qurilma yoki internetga ega bo‘lмагan oilalarning bolalari ortda qolishi mumkin. Bu muammo o‘quvchilarning teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta’minalashda to‘siq bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, ba’zi tadqiqotlar raqamli qurilmalarning haddan tashqari qo‘llanilishi diqqatni jamlashni qiyinlashtirishi yoki o‘quv motivatsiyasiga salbiy ta’sir qilishi mumkinligini ko‘rsatmoqda.



Empirik dalillar texnologiyalarning ta’limdagi samarasi turlicha ekanligini ko‘rsatadi. Ba’zi texnologiyalar, masalan, virtual laboratoriylar va interaktiv platformalar, ayrim bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda yaxshi natija berishi mumkin, boshqalari esa kutilganidek foyda keltirmasligi yuqori. Agar o‘qituvchi

va o‘quvchilar raqamli vositalardan unumli foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lmasa, qimmat texnologik resurslar ta’lim sifatini oshirmsligi mumkin. Bu esa ta’lim tizimida raqamli vositalardan samarali foydalanishni ta’minlash uchun qo‘sishimcha treninglar va o‘qituvchilarni tayyorlash zarurligini ko‘rsatadi.

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini yanada interfaol va samarali tashkil qilish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ammo ularni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilar va o‘quvchilarga mos yondashuvlar va ko‘nikmalarni taqdim etish zarur. Shuningdek, raqamli tafovutlarni bartaraf etish va texnologiyalarning salbiy ta’sirini kamaytirish uchun ijtimoiy tenglikka asoslangan yondashuvlarni amalga oshirish muhimdir.

Uzluksiz monitoring va takomillashtirish strategiyalari ta’lim tizimining samaradorligini doimiy ravishda oshirib borish, o‘quvchilarni ta’lim jarayonida qo‘llab-quvvatlash va ularning muvaffaqiyatlarini yaxshilash uchun zaruriy jarayonlardir. Ushbu strategiyalar ta’lim tizimida yuzaga kelgan kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish va tizimning umumiyligini oshirishga yordam beradi.

Uzluksiz monitoring ta’lim tizimining samaradorligini doimiy ravishda kuzatish, o‘quvchilarning bilim darajalarini, o‘qituvchilarning pedagogik metodlarini va ta’lim jarayonining umumiyligini baholash jarayonidir. Bu jarayonning maqsadi ta’lim sifatini yaxshilash, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishdir.



Uzluksiz monitoringning asosiy xususiyatlari:

- ✓ *Doimiy kuzatish*: O‘quvchilar, o‘qituvchilar va ta’lim muassasalarining faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilish.
- ✓ *Real vaqtda ma’lumot olish*: O‘quvchilarning yutuqlari va kamchiliklarni real vaqtda kuzatish va ularga tegishli o‘zgartirishlar kiritish.
- ✓ *Xatoliklarni tez aniqlash*: O‘quvchilarning bilim darajasidagi tushkunliklarni yoki o‘qituvchilarning metodologiyalaridagi kamchiliklarni tezda aniqlash va tuzatish.

Uzluksiz monitoring ta’lim tizimidagi zaif joylarni tezda aniqlash imkonini beradi. O‘quvchilarga o‘z o‘rganish jarayoni va yutuqlarini doimiy ravishda kuzatish va o‘zgarishlarga moslashishga yordam beradi. O‘qituvchilar o‘z darslarini va metodlarini yaxshilash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Takomillashtirish strategiyalari ta’lim tizimining samaradorligini doimiy ravishda oshirishga qaratilgan rejalar va yondashuvlardir. Bu strategiyalar yordamida ta’lim tizimi o‘quvchilarga yanada sifatli ta’lim berishni maqsad qiladi.

Pedagogik yondashuvlarning takomillashtirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

O‘qituvchilarning malakasini oshirish: O‘qituvchilarga doimiy ravishda malaka oshirish kurslari va seminarlari o‘tkazish, yangi metodlar va innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish.

Ta’lim usullarining takomillashtirilishi: O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash, masalan, interaktiv darslar, guruhli ishlar, onlayn ta’lim va aralash ta’lim usullarini o‘rganish va amaliyotga joriy etish.

O‘quv dasturlarini yangilash: Ta’lim dasturlarini va materiallarini o‘quvchilarning ehtiyojlari va global ta’lim talablari asosida yangilash.

Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash: Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, o‘quv platformalari va ta’lim dasturlarini qo‘llab-quvvatlash orqali ta’lim jarayonini yanada samarali qilish.



Uzluksiz monitoring va takomillashtirish strategiyalarining samarali amalga oshirilishi ta’lim sifatini oshirishda juda muhim. Bu ikki jarayonning integratsiyasi ta’lim tizimining samaradorligini doimiy ravishda oshirib borishga yordam beradi. Monitoring orqali ta’lim tizimida yuzaga kelgan zaif tomonlar va

kamchiliklar aniqlanadi va takomillashtirish strategiyalari yordamida bu kamchiliklarni bartaraf etish mumkin.

Uzluksiz monitoring va takomillashtirish strategiyalari ta’lim sifatini oshirishning samarali vositalaridir. Bu jarayonlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ta’lim tizimini rivojlantirishga va o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishga yordam beradi. Monitoring va takomillashtirish strategiyalarining integratsiyasi ta’lim tizimining samaradorligini maksimal darajada oshiradi. Ushbu strategiyalarni amalga oshirishda raqamlı texnologiyalar va analitik vositalarning ro‘lini inkor etish mumkin emas.

Ta’lim sifatini nazorat qilish va baholash ta’lim jarayonining ajralmas va muhim tarkibiy qismidir. Bu jarayon orqali nafaqat ta’lim sifatining mavjud holati aniqlanadi, balki uni uzluksiz rivojlantirish va takomillashtirish yo‘nalishlari belgilab boriladi. Nazorat va baholash faoliyati ilmiy asoslangan, tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi ta’lim jarayonining samaradorligi va shaffofligini ta’minlaydi.

Ta’lim sifatining nazariy asoslari ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini real baholash, o‘qituvchilarning metodik faoliyatini tahlil qilish, ta’lim muassasasining ichki salohiyatini belgilash kabi vazifalarni o‘z ichiga oladi. Aynan nazorat va baholash tizimlari orqali o‘quv jarayonining kuchli va zaif jihatlari aniqlanadi hamda ularni yaxshilash strategiyalari ishlab chiqiladi.

Nazorat va baholash tizimlari ichki (o‘quv muassasasi darajasida amalga oshiriladigan) hamda tashqi (davlat inspeksiyasi, baholash agentliklari va xalqaro tashkilotlar tomonidan olib boriladigan) mexanizmlar orqali tashkil etiladi. Har ikki yondashuv ta’lim sifatini mukammal tahlil qilishga va uni ko‘p tomonlama baholashga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’limda baholash usullari kengayib, testlar, reyting tizimlari, portfellar, diagnostik intervyular, kuzatuvlar kabi vositalar qo‘llanilmoqda. Bu vositalar o‘quvchining mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va real hayotiy topshiriqlarni bajarish darajasini chuqrani anqliashga xizmat qiladi.

Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi baholash va monitoring tizimining aniqligi, tezkorligi va shaffofligini oshirmoqda. Elektron baholash platformalari, ma'lumotlarni tahlil qilish tizimlari (Learning Analytics) ta'lim jarayonida individual yondashuvni kuchaytiradi, natijalarga asoslangan boshqaruv imkonini beradi.

Shuningdek, uzlucksiz monitoring va takomillashtirish strategiyalari ta'lim sifati nazorati va baholashini doimiy jarayon sifatida tashkil etish imkonini beradi. Baholash natijalari asosida rejalashtiriladigan rivojlantirish choralari tizimli o'zgarishlarga olib keladi va sifatli ta'lim uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Umuman olganda, ta'lim sifatini nazorat qilish va baholash – bu natijadorlik, samaradorlik va doimiy takomillashuvga asoslangan strategik jarayon bo'lib, uning to'g'ri yo'lga qo'yilishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligini va barqarorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Hakimova, Z. *Ta'limda baholash tizimlari va pedagogik nazorat*. Tashkent: Akademnashr. 2018. B-27
2. OECD. *The PISA 2020 assessment and results*. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development.2020.
3. Rasulova, F. *Oliy ta'limda baholash usullari va tizimlari*. Tashkent: Ma'naviyat. 2020. B-90.
4. Schneider, J. *Learning management systems and their role in education*. Journal of Educational Technology Systems, 41(1), 2012. P-69-91.
7. Yuldashev, B. *Ta'lim sifatini oshirishning metodologik asoslari*. Tashkent: Fan nashriyoti. 2017. B-76



Nazorat savollari:

1. Ta'lim sifatini baholashda asosiy nazariy yondashuvlar nimalardan iborat?

2. Ta’lim sifatini nazorat qilishning ichki va tashqi mexanizmlari o’rtasidagi farqlar qanday?
3. Ta’lim sifatini baholashda eng samarali usullar va vositalar qaysilar?
4. Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayonida qanday ro‘li bor va ular qanday ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi?
5. Uzluksiz monitoring va takomillashtirish strategiyalari ta’lim sifatini oshirishda qanday ahamiyatga ega?



Amaliy topshiriqlar:

1. Ta’lim sifatini o‘lchashda qo‘llaniladigan yondashuvlar, ularning kuchli va zaif tomonlarini keltirib, amaliyotda qanday yondashuvni tanlash kerakligi haqida fikr yuriting.
2. Formativ va summativ baholashni amaliyotda qanday qo‘llash mumkinligini ko‘rsatib bering. Har ikki baholash usulining o‘ziga xos afzalliklarini va qo‘llaniladigan usullari bo‘yicha misollar keltiring.
3. Turli ta’lim tizimlaridagi baholash usullarini solishtirib chiqing va ularning samaradorligini qanday oshirish mumkinligini muhokama qiling.
4. Raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha amaliy loyiha ishlab chiqing.
5. Raqamli ta’lim vositalarini qo‘llashning amaliyotdagи imkoniyatlarini o‘rganing. LMS tizimlari, interaktiv platformalar yoki onlayn testlar asosida ta’lim sifatini qanday baholash mumkinligini ko‘rsating.
6. Uzluksiz monitoring va takomillashtirish strategiyalarini ishlab chiqing.
7. Ta’lim tizimining samaradorligini monitoring qilish uchun yangi strategiyalarni ishlab chiqing va ushbu strategiyalar yordamida ta’lim sifatini qanday oshirish mumkinligini ko‘rsating.

2.3 TA’LIM MUASSASASI FAOLIYATINI BAHOLASH

Reja:

1. Ta’lim muassasalarining attestatsiya va akreditatsiya jarayonlari.
2. Ta’lim muassasasi xodimlarining attestatsiyasi.
3. Ta’lim muassasalarining reytingini aniqlash.
4. Ta’lim muassasalarini litsenziyalash.
5. Sertifikatlash va uning ta’lim sifatiga ta’siri.

Tayanch so‘zlar: *attestatsiya, reyting, baholash, akredetsiya, litsenziyalash, sertifikatlash.*

Ta’lim muassasalarining attestatsiya va akreditatsiya tizimlari ta’lim sifatini o‘lchash va nazorat qilishda muhim vositalardan hisoblanadi. Ushbu tizimlar ta’lim jarayonining samaradorligi, o‘quvchilarning bilim darajasi va o‘qituvchilarning malakasini baholashda foydalilanadi. Attestatsiya va akreditatsiya o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, har biri o‘ziga xos va alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ta’lim sifatini ta’minlashga xizmat qiladi.

Attestatsiya va akreditatsiya tizimlarining ta’lim sohasidagi tarixi uzluksiz rivojlanib kelmoqda. Ushbu tizimlarning har biri ta’lim sifatini oshirish, nazorat qilish va mustahkamlash uchun muhim vositalar hisoblanadi.



Attestatsiya tizimi o‘qituvchilarning va ta’lim muassasalarining sifatini baholashga qaratilgan. Bu tizimning asosiy maqsadi o‘qituvchilarning malakasi va ta’lim muassasasining umumiy faoliyatini tekshirishdan iborat. Attestatsiyaning rivojlanishi, avvalambor, ta’limning umumiy sifatini oshirishga,

ta’lim muassasalarining samaradorligini aniqlashga va o‘quvchilarning bilim darajasini o‘lchashga qaratilgan. XIX asrda ta’lim tizimi va uning nazoratini oshirish maqsadida birinchi bor attestatsiya tizimlari joriy etildi. O‘qituvchilarning malakasini baholash va umumiy ta’lim sifatini oshirish uchun davlat va mahalliy hokimiyatlar tomonidan attestatsiya tizimi qabul qilindi. Ushbu davrda attestatsiya asosan o‘qituvchilarning yuridik va ilmiy malakalarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, o‘qituvchilarning pedagogik tajriba va nazariy bilimlarga ega bo‘lishi tekshirilar edi.

XX asrning boshlarida, ayniqsa, ta’lim tizimi global miqyosda jadal rivojlanib, ilmiy va pedagogik yondashuvlar o‘zgarib borgan sari attestatsiya tizimi yanada mustahkamlana boshladi. Ko‘plab mamlakatlarda, xususan, Evropada o‘qituvchilarni malakasini baholashda standartlashtirish jarayonlari boshlangan. O‘qituvchilarning malakasini tekshirish uchun ilmiy metodlar va testlar ishlab chiqildi. 1990-yillarda ta’limda sifatni baholash va attestatsiya tizimi mamlakatlar o‘rtasida global standartlarga mos ravishda ishlab chiqildi.

Attestatsiya ta’lim muassasasining umumiy holatini, faoliyatini va ta’lim sifatini o‘rganishga asoslangan tizimdir. Attestatsiya o‘quv muassasasining ichki va tashqi ko‘rsatkichlarini baholashni o‘z ichiga oladi. O‘quv muassasalarining faoliyatini baholashda ko‘plab faktorlar hisobga olinadi: ta’lim jarayoni, o‘qitish metodikasi, o‘quvchilarni baholash usullari, o‘qituvchilarning malakasi va pedagogik faolligi, ta’lim muassasasining infrastruktura imkoniyatlari va boshqalar.



Attestatsiyaning asosiy maqsadlari:

- Ta’lim muassasasining faoliyatini umumiy baholash.
- O‘quvchilarning bilim darajasi va o‘qituvchilarning pedagogik malakasini tahlil qilish.
- Ta’lim muassasasining yutuq va kamchiliklarini aniqlash.
- Ta’lim jarayonidagi zaif tomonlarni ko‘rsatish va ularni tuzatish uchun tavsiyalar berish.

Attestatsiya jarayonining bosqichlarida dastlabki tahlil o‘tkaziladi. Unga ko‘ra, ta’lim muassasasining mavjud holati va o‘qitish samaradorligi o‘rganiladi. Mavjud muvaffaqiyatlar va kamchiliklar aniqlanadi. Ta’lim sifatini oshirishda zarur bo‘lgan kamchiliklar va zaif tomonlar ko‘rsatiladi. Ta’lim muassasasi faoliyatini yaxshilash uchun konkret tavsiyalar va takliflar ishlab chiqiladi. Attestatsiya natijalari asosida hujjatlar va hisobotlar tayyorlanadi.

Attestatsiya o‘tkazishning bir qancha afzallikkleri mavjud. Jumladan:

- ✓ Ta’lim muassasasining holati haqida aniq va tushunarli ma’lumotlar olish imkoniyati.
- ✓ O‘quvchilarning bilim darajasi va o‘qituvchilarning malakasini baholash.
- ✓ Ta’lim muassasalarining o‘zgarishi va takomillashishi uchun tavsiyalar berish.



Akreditatsiya — bu ta’lim muassasasining sifat talablariga javob berishini tasdiqlovchi jarayondir. Akreditatsiya muassasaning ta’lim tizimi, dasturlari, o‘qituvchilarining malakasi, o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash xizmatlari va boshqa ko‘rsatkichlar bo‘yicha belgilangan milliy yoki xalqaro sifat talablariga mosligini tekshiradi. Akreditatsiya jarayoni nafaqat mamlakat ichidagi ta’lim

tizimini baholaydi, balki xalqaro miqyosda ta’lim sifatini tasdiqlaydi. Bu esa ta’lim muassasasining nufuzini oshiradi va o‘quvchilarga xalqaro darajada tan olingan diplom olish imkoniyatini yaratadi.

Akreditatsiya ta’lim muassasasining sifatiga nisbatan xalqaro darajada tasdiqlangan va tan olingan tizimdir. Ushbu tizim o‘qitishning yuqori sifatini ta’minlash, ta’lim dasturlari va metodlarini to‘g‘ri tanlash va amalda qo‘llashda asosiy vosita sifatida shakllandi.

Akreditatsiyaning asosiy maqsadi ta’lim muassasasining sifatini xalqaro talablar va standartlarga mosligini tasdiqlash, o‘quvchilarga yuqori sifatli ta’lim berishni ta’minlash va ta’lim tizimini takomillashtirish va o‘quvchilarga yanada yaxshiroq imkoniyatlar yaratishdan iborat.

Mazkur jarayonda ta’lim muassasasining barcha zarur talablarni bajarishga tayyorligi tekshiriladi. Ta’lim muassasasining barcha qismlari (o‘qituvchilar, ta’lim dasturlari, infratuzilma) baholanadi. Ta’lim muassasasining sifat talablariga mos kelishi tasdiqlanadi va akreditatsiya beriladi. Akreditatsiya natijalari davomida o‘quv muassasasi faoliyatining davomiy tekshiruvi va monitoringi amalga oshiriladi.

Uning afzalliklari o‘z ichiga xalqaro miqyosda ta’lim muassasasining sifatini tasdiqlash, o‘quvchilar uchun global imkoniyatlar yaratish (masalan, xorijda ishlash yoki o‘qish) va ta’lim muassasasining nufuzini oshirish kabilarni oladi.



Akreditatsiya tizimi ilk bor XIX asrning oxirlarida, ayniqsa, yuqori ta’lim muassasalarida, xalqaro ta’lim tizimi uchun yangi metodlar qabul qilinganidan so‘ng tashkil topgan. Bu davrda akreditatsiya, asosan, davlat darajasida ta’lim

muassasalarining sifatini tekshirish uchun ishlatalgan. Amerika Qo'shma Shtatlarida XIX asr oxirida yuqori ta'lim muassasalarini tasdiqlash uchun akkreditatsiya tizimi ishlab chiqildi. XX asrning 50-yillari oxirida, akreditatsiya tizimi ko'plab mamlakatlarda rasmiy ravishda joriy etildi. Xususan, Yevropa va Shimoliy Amerikada ta'lim muassasalarining global miqyosda sifatini baholash tizimi shakllandi. 1950-yillarda xalqaro miqyosda ta'lim muassasalarining akreditatsiyasi uchun zarur standartlar ishlab chiqildi. Bunda, ta'limning sifatini ta'minlash, talabalar va o'qituvchilar uchun yaxshiroq imkoniyatlarni yaratish maqsadida yangi metodlar kiritildi.

1990-yillarda akkreditatsiya tizimi xalqaro miqyosda yanada kengayib, butun dunyo bo'ylab ta'lim muassasalari o'rtaida raqobatni kuchaytirishga yordam berdi. Bu davrda ta'limning sifatini ta'minlash va standartlashtirish jarayonlari o'ta muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va YUNESKO kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan akreditatsiya jarayonlari global miqyosda tashkil etildi. Bugungi kunda akreditatsiya nafaqat mamlakat ichida, balki xalqaro miqyosda ta'lim sifatini tasdiqlashning asosiy vositasiga aylangan. Xalqaro ta'lim muassasalari va tashkilotlar o'rtaida o'zaro tan olingan akreditatsiya tizimlari mavjud. Bu tizimlar ta'lim muassasalarining global sifatini ta'minlashga yordam beradi. Xalqaro ta'lim tizimlarida akkreditatsiya va attestatsiya jarayonlarining ahamiyati ortib, bunda ta'lim muassasalarining global darajada sifatini oshirishga qaratilgan yangi yondashuvlar joriy etildi.



Attestatsiya o'quv muassasasining ichki faoliyatini baholashga asoslangan bo'lsa, akreditatsiya xalqaro miqyosda ta'lim sifatini tasdiqlashga qaratilgan.

Attestatsiya jarayoni ko‘proq muassasaning faoliyatini o‘rganish, akreditatsiya esa muassasaning sifat standartlariga mosligini tekshiradi. Akreditatsiya ko‘pincha xalqaro tan olish va imtiyozlar yaratadi, lekin attestatsiya asosan milliy darajada ishlataladi.

Attestatsiya va akreditatsiya tizimlari ta’lim sifatini baholashning zamonaviy vositalariga aylangan. Attestatsiya o‘quv muassasasining ichki faoliyatini tekshirish va yaxshilashga yordam beradi, akreditatsiya esa ta’lim muassasasining xalqaro darajadagi sifatini tasdiqlaydi. Ushbu tizimlar o‘zaro to‘ldiruvchi bo‘lib, ta’lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Ta’lim sifatini ta’minlash uchun har ikkala jarayonning o‘rni katta va ta’lim muassasalari o‘z faoliyatlarini yanada takomillashtirish uchun bu tizimlardan samarali foydalanishlari kerak. Ta’lim muassasalarining attestatsiya va akreditatsiya jarayonlari ta’lim sifatini nazorat qilishda asosiy vositalar bo‘lib, har ikkisi ham ta’lim sohasining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Akreditatsiya xalqaro miqyosda ta’lim sifatini tasdiqlaydi, attestatsiya esa ichki baholashni amalga oshiradi. Ta’lim muassasalarining sifatini oshirish uchun ushbu tizimlar bir birini to‘ldiruvchi jarayonlardir va ta’limning umumiy sifatini oshirishga yordam beradi.

Ta’lim muassasasi xodimlarining attestatsiyasi — bu o‘qituvchilarining va boshqa ta’lim muassasasi xodimlarining malakalarini, ish faoliyatini baholash va ular tomonidan taqdim etilgan natijalarni tahlil qilish jarayonidir. Bu jarayon o‘qituvchilar, metodistlar, direktorlar va boshqa xodimlarning professional rivojlanishini ta’minlash va ta’lim muassasalarining sifatini oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Ta’lim muassasasi xodimlari attestatsiyasining asosiy maqsadlari ularning o‘z vazifalarini qanday bajarishi, o‘quv jarayonida qatnashishi va o‘quvchilar bilan ishlashdagi samaradorligini aniqlash, xodimlarning pedagogik metodlari, o‘qitish usullari va ta’limda qo‘llanilayotgan innovatsion texnologiyalarni baholash, o‘quvchilarga ta’lim berish sifatini oshirishdir. O‘qituvchilar va ta’lim muassasasi xodimlarining pedagogik faoliyatini baholash orqali ta’lim sifatini oshirish va samarali ta’lim jarayonini

yaratish hamda attestatsiya orqali xodimlarga takliflar berish va malakasini oshirish imkoniyatlarini yaratishdan iborat.

Xorij tajribasida pedagoglar attestatsiyaga tayyorlanishda o‘z ish faoliyatlarini hujjatlashtiradi va o‘zini baholashni amalga oshiradi. Bunda, o‘qituvchilar va boshqa xodimlar o‘z ish faoliyatiga oid metodik materiallar, o‘quvchilarning muvaffaqiyatlari va o‘qitish usullarini ko‘rsatadi. Bu bosqichda o‘qituvchilarning pedagogik yondashuvlari va natijalari aniqlanadi.



Xodimlarning pedagogik faoliyatini baholash uchun mutaxassislar va ekspertlar tomonidan tahlil qilinadi. Bu tahlil asosida o‘qituvchilarning darslarini kuzatish, ta’limni qanday tashkil qilayotgani, ta’lim metodlari va o‘quvchilar bilan aloqalari baholanadi. Bunda, o‘qituvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun qanday strategiyalarni qo‘llayotganini aniqlash muhim. Xodimning malakasi rasmiy ravishda baholanib, tasdiqlanadi. Agar o‘qituvchi yoki xodim yuqori baho olgan bo‘lsa, ularning malakasi tasdiqlanadi. Bunda, ma’lum bir vaqt davomida xodimlarning o‘qituvchilik faoliyati va natijalari tahlil qilinadi. Attestatsiya natijalariga ko‘ra, xodimlarga tavsiyalar beriladi. Agar kerak bo‘lsa, malakani oshirish uchun kurslar, seminarlar, konferensiylar yoki pedagogik treninglar tashkil etiladi. Bu orqali o‘qituvchilar va ta’lim muassasasi xodimlariga o‘z bilim va ko‘nikmalarini yangilash, rivojlantirish imkoniyati yaratilib, ta’lim sifati oshiriladi.

Xodimlarning attestatsiyasi ta’lim sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Ta’lim tizimidagi xodimlarning malakasini oshirish orqali ta’lim jarayonida yanada samarali natjalarga erishish mumkin. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirishga

yordam beradi.

Attestatsiya orqali o‘qituvchilar va ta’lim muassasasi xodimlarining malakasini oshirish, yangi pedagogik metodlar va texnologiyalarni o‘rganish imkonini yaratiladi. Xodimlarning malakasi oshgani sayin o‘quvchilarga ko‘rsatilayotgan ta’lim sifatining ham yaxshilanishi ta’minlanadi. Attestatsiya jarayonida aniqlangan kamchiliklar va zaif tomonlar asosida o‘qituvchilarning pedagogik faoliyati takomillashtiriladi.



Xodimlarning attestatsiyasi ta’lim muassasasining rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Malakali va samarali o‘qituvchilarni tanlash, ularning pedagogik faoliyatini muntazam baholash, ta’lim muassasasining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shuningdek, xodimlarning malakasini oshirish, yangi pedagogik yondashuvlar va metodlarni qo‘llash, ta’lim muassasasining nufuzini oshiradi va o‘quvchilarga yuqori sifatli ta’lim berish imkoniyatini yaratadi.

Ta’lim muassasasi xodimlarining attestatsiyasi ta’lim sifatini oshirish va xodimlarning malakasini muntazam ravishda tekshirish jarayonidir. Bu tizim ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini baholash va ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Xodimlarning malakasini oshirish orqali ta’lim sifatini yaxshilash va zamonaviy pedagogik metodlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatlari yaratiladi.

Ta’lim muassasalarining reytingini aniqlash ta’lim tizimini baholash, uning sifatini ta’minlash va ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Reyting tizimi o‘quv muassasalarining ta’lim samaradorligi, o‘quvchilarning yutuqlari, o‘qituvchilarning malakasi va ta’lim muassasasining infratuzilmasini baholash uchun qo‘llaniladi. Reyting, ta’lim

muassasasining mavjud holati va uning o‘zgarishlar jarayonini kuzatish uchun zarur bo‘lgan ko‘rsatkichlarni taqdim etadi.

Reytingning asosiy maqsadi — ta’lim muassasasining sifati va o‘quv



jarayonidagi samaradorligini aniqlashdir. Bu orqali ta’lim tizimining turli qismlari o‘zaro ta’siri, resurslarning qanday ishlatalayotgani va natijaviylikni baholash mumkin.

Reyting tizimi ta’lim muassasalarining o‘zaro solishtirilishini osonlashtiradi va ta’lim muassasalarini rivojlantirish uchun zarur choralarni ko‘rish imkoniyatini yaratadi. Reyting tizimining ahamiyati shundaki, u ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ta’lim muassasasining reytingini o‘rganish orqali uning kamchiliklari va zaif tomonlarini aniqlash mumkin, bu esa ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi. O‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun ko‘proq imkoniyatlar yaratadi. Reyting orqali ta’lim muassasasining yaxshilanishi uchun zaruriy o‘zgarishlar amalga oshiriladi. Natijada o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun yanada yaxshi ta’lim imkoniyatlari yaratiladi. Reyting tizimi ta’lim muassasalarining o‘zaro raqobatini kuchaytiradi, bu esa ta’lim tizimining sifatini oshirishga olib keladi.



Ta’lim muassasalarining reytingini aniqlashda bir qator muhim omillar hisobga olinadi. Bu omillar ta’lim muassasasining faoliyati va uning sifatini o‘lchashda asosiy ko‘rsatkichlar sifatida xizmat qiladi:

- ❖ *O'quvchilarni baholash:* Ta'lismuassasasining reytingini aniqlashda o'quvchilarning bilim darajasi va o'qishdagi muvaffaqiyatlari muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning akademik yutuqlari, test natijalari va ilmiy muvaffaqiyatlari reytingni shakllantirishda asosiy omillardan biri bo'ladi.
- ❖ *O'qituvchilar va xodimlar malakasi:* O'qituvchilarning malakasi va pedagogik faoliyati ta'lismuassasasining reytingini belgilashda katta ro'l o'ynaydi. O'qituvchilarni attestatsiya qilish va malaka oshirish jarayonlari reytingga ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilarning doimiy ravishda malaka oshirishlari va yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llashlari muassasa reytingini oshiradi.
- ❖ *Ta'lism dasturlari va metodlari:* Ta'lismuassasasining ta'lism dasturlari va metodlari reytingni shakllantirishda muhim o'rinni tutadi. Yangi pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar, va ta'lism texnologiyalarining qo'llanilishi reytingni oshiradi.
- ❖ *O'quv muassasasining infrastruktura va resurslari:* Ta'lismuassasasining zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanganligi, darsliklar va boshqa o'quv resurslari reytingni aniqlashda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, o'quv muassasasining jismoniy va ma'naviy infratuzilmasi (kutubxona, sport zallari, laboratoriylar va boshqa resurslar) reytingga ta'sir qiladi.
- ❖ *Xalqaro miqyosdagi muvaffaqiyatlar:* Ta'lismuassasasining xalqaro miqyosdagi reytingi va ishtiroki ham hisobga olinadi. Ta'limning global miqyosda tan olinishi, xalqaro akreditatsiya va shunga o'xshash omillar reytingni oshirishga yordam beradi.
- ❖ *Ijtimoiy va madaniy faktlar:* Ta'lismuassasasining ijtimoiy, madaniy va jamoaviy aloqalari, talabalar va ularning o'qituvchilari o'rtasidagi munosabatlar ham reytingga ta'sir qiladi. Talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi yaxshi munosabatlar, ishning sifatini oshiradi va reytingni mustahkamlaydi.

Reyting tizimi ta'lismuassasasining barcha sohalarini baholashga asoslanadi. O'quvchilarni baholash va o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini tahlil qilish orqali, reytingning shakllanishi ta'minlanadi. Ta'lismuassasasining

reytingini aniqlash uchun aniq mezonlar va ko‘rsatkichlar ishlab chiqiladi. Bu mezonlar ta’lim muassasasining o‘quv dasturlari, o‘qituvchilarining malakasi, infratuzilma, o‘quvchilarining yutuqlari va boshqa ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. Ta’lim muassasasining faoliyati mezonlar bo‘yicha baholanadi. Bu tahlil o‘qituvchilarining va o‘quvchilarining faoliyatlari, o‘quv dasturlari va metodlari hamda resurslarning samarali ishlatilishini o‘rganishga qaratilgan. Baholash yakunlari asosida ta’lim muassasasining reytingi e’lon qilinadi. Reyting muassasaning global va milliy darajadagi o‘rnini ko‘rsatadi va ta’lim sifatini oshirish uchun yangi yondashuvlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Ta’lim muassasalarining reytingini aniqlash tizimi, ta’limning samaradorligini oshirish va bu jarayonni yaxshilashda katta ahamiyatga ega. Reyting, o‘quv muassasasining mavjud holatini baholash, kamchiliklarni aniqlash va yangilanishlarni amalga oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Bu tizim ta’lim muassasalarining o‘zaro raqobatini kuchaytiradi, o‘quvchilarga yuqori sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini yaratadi va o‘qituvchilarining malakasini oshiradi. Reyting orqali ta’lim tizimining sifatini global darajada baholash va takomillashtirish mumkin.



Ta’lim muassasalarini litsenziyalash — bu davlat tomonidan o‘qitish faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsatnoma olish jarayonidir. Litsenziyalash jarayoni ta’lim muassasalarining faoliyatini qonuniy ravishda boshlash uchun zarur bo‘lgan huquqiy asoslarni yaratadi. Bu jarayon orqali davlat ta’lim muassasalarining sifati, pedagogik faoliyati, ta’lim dasturlarining to‘g‘riliği va boshqa talablarni nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ta’lim muassasalarini litsenziyalashning asosiy maqsadi litsenziyalash jarayoni ta’lim muassasasining sifati va ish faoliyatining me’yorlarga muvofiqligini nazorat qilishga yordam beradi. Davlat litsenziyalash orqali faqat sifatli va malakali ta’lim muassasalariga faoliyat yuritish huquqini beradi. Litsenziyalash, ta’lim muassasasining davlat tomonidan tasdiqlangan qonuniy faoliyat yuritishini ta’minlaydi. Bu esa o‘quvchilarga sifatli ta’lim olish imkonini yaratadi. Litsenziyalash jarayoni orqali o‘quvchilar va ularning ota-onalari ta’lim muassasasining rasmiyligi va sifatini tasdiqlangan davlat organi tomonidan ko‘rilganligini bilishadi. Litsenziyalash jarayoni ta’lim muassasalariga xalqaro miqyosda tan olingan huquqiy maqomni beradi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilar va o‘qituvchilarni global miqyosda tan olishga olib keladi.

Ta’lim muassasalarini litsenziyalash jarayoni bir qator huquqiy hujjatlarga asoslanadi. Bu hujjatlar ta’lim muassasalarining ish faoliyatini qonuniylashtirish, sifatini nazorat qilish va ta’lim tizimining barqarorligini ta’minalashga xizmat qiladi. Litsenziyalash tizimi davlat tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi va bu jarayonning adolatli, shaffof va samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Litsenziyalashning huquqiy asoslari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ✓ Ta’lim muassasalarini litsenziyalashga oid yuridik normativ-huquqiy hujjatlar.
- ✓ Ta’lim sohasidagi qonunlar va me’yoriy hujjatlar, shu jumladan, ta’lim sifati va ta’lim muassasalarining faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlar.
- ✓ Ta’lim muassasasining faoliyatiga oid mahalliy va xalqaro standartlar.

Litsenziyalashning ta’lim sifatiga ta’siri juda muhim. Litsenziya ta’lim muassasasining o‘z faoliyatini rasmiy va qonuniy tarzda yuritishi uchun zarur bo‘lgan huquqiy asosni yaratadi. Bu jarayon ta’limning sifatini oshirishga yordam beradi. Chunki faqat malakali va sifatli ta’lim beruvchi muassasalarga faoliyat yuritish huquqi beriladi. Litsenziyalash orqali faqat ta’limning belgilangan standartlarga muvofiq ishlaydigan muassasalar faoliyat yuritishi mumkin, bu esa o‘quvchilar va ota-onalar uchun sifatli ta’limni ta’minlaydi.


O‘quvchilar ta’lim olish uchun litsenziyalangan muassasalarda o‘qishlari mumkin, bu esa ularning ta’lim olish imkoniyatlarini oshiradi va xavfsizligini ta’minlaydi. Litsenziyalash jarayoni ta’lim muassasasining xalqaro miqyosda tan olinganligi va ta’limning global miqyosdagi sifatini bildiradi.



Ta’lim muassasalarini litsenziyalash jarayoni ta’lim tizimining samaradorligi va sifatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Litsenziyalash ta’lim muassasasining faoliyatini qonuniylashtirish, sifatni nazorat qilish va ta’lim oluvchilarga ta’limni sifatli va xavfsiz olish imkoniyatini yaratish uchun zarur. Ushbu jarayon faqat ta’lim muassasalarining global darajada sifatini oshirishni emas, balki o‘quvchilarning ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishini ham ta’minlaydi. Sertifikatlash — bu ta’lim muassasasi yoki o‘qituvchining malakasi, ta’lim sifati va belgilangan standartlarga muvofiqligini tasdiqlovchi jarayondir. Sertifikatlash jarayoni ta’lim tizimini yanada sifatli tashkil qilish va sohadagi ilmiy va amaliy ko‘nikmalarni taqdim etishga xizmat qiladi. Bu jarayonning asosiy maqsadi ta’lim muassasalarining sifatini oshirish, o‘qituvchilarning pedagogik malakasini rivojlantirish va o‘quvchilarga yuqori sifatli ta’lim berish imkoniyatlarini yaratishdan iborat.



Sertifikatlash jarayoni orqali ta’lim muassasalarining sifatini tasdiqlash va bu muassasalarga doimiy sifat nazoratini o‘rnatish imkoniyati yaratiladi. Bu jarayon orqali o‘quvchilarga yanada sifatli ta’lim berish ta’minlanadi. Sertifikatlash jarayoni o‘qituvchilar va boshqa ta’lim xodimlarining malakasi va pedagogik ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi. Bu orqali ta’lim xodimlari o‘z faoliyatlarini takomillashtirish va innovatsion pedagogik metodlarni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Sertifikatlash jarayoni o‘qituvchilar va ta’lim muassasalariga ijtimoiy va professional tan olishni ta’minlaydi. Bu, o‘z navbatida, o‘qituvchilar va muassasalar uchun yanada yaxshi ish sharoitlari yaratadi. Sertifikatlash o‘quvchilarga faqat malakali o‘qituvchilar tomonidan ta’lim berilishini ta’minlab, ta’lim sifatini oshiradi. Sertifikatlash jarayonining ta’lim sifatiga ta’siri juda katta. Bu jarayon ta’lim muassasalarining sifatini oshirish va o‘qituvchilarning malakasini nazorat qilishda asosiy vosita hisoblanadi. Sertifikatlash jarayoni o‘qituvchilarni yangi pedagogik usullar va texnologiyalarni o‘rganish, bilimlarini yangilashga undaydi. Bu esa o‘quvchilarga yuqori sifatli ta’lim berish imkonini yaratadi. Sertifikatlash jarayoni ta’lim xodimlarining yangi metodlarni o‘rganishi va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashini ta’minlaydi. O‘qituvchilar yangiliklardan foydalanish orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshiradi. Sertifikatlangan ta’lim muassasalari o‘zining yuqori sifatini xalqaro miqyosda tasdiqlaydi va reytingini oshiradi. Sertifikatlash ta’lim muassasasining nufuzini oshiradi va o‘quvchilarga yanada yaxshi ta’lim olish imkoniyatini yaratadi. Sertifikatlash jarayoni ta’lim muassasalarini tizimli yangilanishlarga moslashish, ilg‘or metodikalar va texnologiyalarni joriy etishga yordam beradi. Bu orqali ta’lim tizimi tez rivojlanib, o‘zgaruvchan talablar va ehtiyojlarga moslashadi.



Sertifikatlash ta’lim tizimida o‘qituvchilarning malakasini oshirish, ta’lim sifatini yaxshilash va innovatsion pedagogik metodlarni qo‘llashda muhim vosita hisoblanadi. Sertifikatlash o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini baholash orqali ularning malakasini oshirishga yordam beradi va ta’lim sifatini ta’minlashda katta ro‘l o‘ynaydi. Sertifikatlash jarayonining samarali ishlashi, ta’lim tizimining sifatini yaxshilashga olib keladi va o‘quvchilarga yuqori sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratadi.

Ta’lim muassasasi faoliyatini baholash — ta’lim sifati va samaradorligini belgilovchi muhim boshqaruvi mexanizmi bo‘lib, u orqali ta’lim tashkilotlarining holati, resurs salohiyati, o‘quv jarayoni sifati hamda yakuniy natijalari tizimli tahlil etiladi. Baholash jarayonlari ta’lim tizimining ochiqligi, shaffofligi va javobgarligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ta’lim muassasalarining attestatsiya va akreditatsiya jarayonlari ularning davlat ta’lim standartlariga mos kelishini, belgilangan talablar asosida faoliyat yuritayotganini aniqlash va rasmiy tasdiqlash imkonini beradi. Bu jarayonlar orqali ta’lim sifatining kafolatli darajada ta’minlanishi va uzluksiz takomillashtirilishi nazorat qilinadi.

Shuningdek, ta’lim muassasasi xodimlarining attestatsiyasi ularning kasbiy kompetensiyalari, metodik tayyorgarligi va zamonaviy yondashuvlarni egallaganlik darajasini baholaydi. Bu esa o‘qituvchilarning faoliyatiga nisbatan adolatli va rag‘batlantiruvchi yondashuvni shakllantiradi hamda ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Reyting tizimi ta’lim muassasalari faoliyatini qiyosiy tahlil qilish va ularning nufuzini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Reyting natijalari ta’lim muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobatni rivojlantiradi, faoliyat samaradorligini oshirishga turtki beradi hamda ijtimoiy ishonch omilini kuchaytiradi.

Litsenziyalash jarayonlari esa ta’lim faoliyatini yuritish imkonini beruvchi asosiy huquqiy mexanizm bo‘lib, muassasalarning infratuzilmasi, kadrlar salohiyati, o‘quv-metodik ta’minoti va xavfsizlik talablariga muvofiqligi asosida amalga oshiriladi. Bu talablar ta’lim tizimining barqaror va sifatli faoliyatini kafolatlashga xizmat qiladi.

Sertifikatlash — o‘quvchi, o‘qituvchi yoki ta’lim muassasasining belgilangan mezonlarga mosligini rasmiy tarzda tasdiqlash jarayonidir. Bu mexanizm ta’lim natijalarini xalqaro miqyosda tan olish, o‘quvchilar raqobatbardoshligini oshirish hamda milliy ta’lim tizimini global standartlarga yaqinlashtirishga imkon beradi.

Umuman olganda, ta’lim muassasasi faoliyatini baholashga oid mexanizmlar — attestatsiya, akreditatsiya, reyting, litsenziyalash va sertifikatlash — ta’lim tizimining tashkiliy mustahkamligi, sifat darajasi va rivojlanish istiqbollarini belgilab beradi. Ushbu yondashuvlar ta’lim sohasida strategik qarorlar qabul qilish, islohotlar samaradorligini baholash va ijtimoiy ehtiyojlarga mos ravishda takomillashtirish imkoniyatlarini yaratadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Hojiahmedov G‘., Yaxyayeva I., Umarova M., Usmonov A. *Sifat menejmenti*. – T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. B-112
2. Qosimova D. *Menejment nazariyasi*. – T.: “Tafakkur bo‘stoni”, 2011. B-32
3. R.I. Gimush, F.M. Matmurodov. *Innovatsion menejment*. – T.: O‘zbekis-ton Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.B-164
4. Djurayev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti. – Toshkent., “Voris-Nashriyot”, 2006. Б -35

5. Sharifxo‘jayev M., Abdullayev Yo. Menejment. Darslik. –T.: O‘qituvchi, 2001. B -77

6. OECD. *The PISA 2020 assessment and results.* Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development. B-190



Nazorat savollari:

1. Ta’lim muassasalarining attestatsiya va akreditatsiya jarayonlarining farqlari nimalarda?
2. Ta’lim muassasasi xodimlarining attestatsiyasining asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
3. Ta’lim muassasasining reytingini qanday aniqlash mumkin?
4. Reytingning ta’lim muassasasiga ta’siri qanday bo‘ladi?
5. Litsenziyalash jarayoni ta’lim muassasasining huquqiy asoslarini qanday belgilaydi?
6. Ta’lim muassasasini litsenziyalashning ta’lim sifatiga ta’siri qanday?
7. Sertifikatlash jarayonining ta’lim tizimining sifatiga ta’siri qanday?
8. Sertifikatlash jarayonida o‘qituvchilar va xodimlarning malakasi qanday oshiriladi?



Amaliy topshiriqlar:

1. O‘zingiz tanlagan bir ta’lim muassasasi yoki o‘qitish tizimining akreditatsiya jarayonlarini tahlil qilib chiqing. Akreditatsiya jarayonining samaradorligini va uning ta’lim sifatiga ta’sirini baholang.

2. Ta’lim muassasasining reytingini aniqlash uchun kerakli mezonlar va ko‘rsatkichlarni ishlab chiqing. Reytingni aniqlashda qanday omillarni hisobga olish kerakligini tahlil qiling.
3. Ta’lim muassasasidagi xodimlar attestatsiyasi jarayonini amaliyatga asoslanib o‘rganing. Attestatsiya jarayonida ishlatiladigan metodlarni va baholash vositalarini tahlil qiling.
4. Ta’lim muassasasining litsenziyalash jarayonini tadqiq qiling. Bu jarayonda o‘quv muassasasiga berilgan litsenziyaning huquqiy asoslarini va jarayonni qanday nazorat qilishni aniqlang.
5. Sertifikatlash jarayonining o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatiga va ta’lim sifatiga ta’sirini o‘rganing. Sertifikatlash jarayoni orqali ta’lim muassasasining nufuzini qanday oshirish mumkinligini tahlil qiling.

III BOB. TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASHNI RAQAMLASHTIRISH ZAMON TALABI

3.1 TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASHNING ELEKTRON TIZIMI

Reja:

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta'lism sifati monitoringini tashkil etish shakl va vositalari.
2. Ta'lism sifati monitoringining elektron modeli.
3. Monitoringni tashkil etish infratuzilmasi, dasturiy va metodik ta'minoti.
4. Ta'lism muassasalarining integrallashgan elektron tizimi.
5. Elektron monitoring tizimi dasturiy platformasi tarkibi va elektron portfeli.

Tayanch so'zlar: AKT (Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari), ta'lism sifati monitoring, elektron model, monitoring tizimi, elektron portfel, sun'iy intellekt (SI), samarali ta'lim metodlari, ma'lumotlarni tahlil qilish.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'limda samarali monitoring tizimlarini yaratishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. AKT, ta'lism jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatish, o'quvchilarni baholash, o'qituvchilarni malakasini tahlil qilish va ta'lism sifatini yaxshilash uchun zarur bo'lgan texnologiyalarni taqdim etadi. Ta'lism sifatini monitoring qilish uchun zarur bo'lgan texnologiyalar o'qituvchilar, o'quvchilar va ta'lism muassasalarining ishlashini samarali baholash imkonini beradi.



AKT ning ta’lim sifatini nazorat qilishdagi asosiy roli – ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish, ta’lim tizimini optimallashtirish, o‘quvchilarning bilim darajasini o‘lchash, hamda o‘qituvchilarning samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Axborot texnologiyalari orqali ta’lim muassasalaridan o‘quvchi ma’lumotlari, dars ishlanmalarining samaradorligi, o‘qituvchilarning pedagogik metodlarini o‘rganish imkoniyati mavjud. Bu tizim o‘qituvchilarni real vaqtida kuzatish, o‘quvchilarni baholashni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

AKT yordamida yig‘ilgan ma’lumotlar tezkor va aniq tahlil qilinadi. Bu tahlil o‘qituvchilarning ish faoliyatini baholashga, ta’lim samaradorligini o‘lchashga yordam beradi. Ta’lim jarayonida natijalarni tez va samarali tahlil qilish muhim. AKT ta’lim jarayonini interfaol va o‘zaro faoliyatga asoslangan tarzda tashkil etishga imkon beradi. Misol uchun, ta’limni boshqarish tizimlari (LMS), o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini onlayn tarzda kuzatib borish va baholash imkoniyatlarini taqdim etadi.



Raqamli texnologiyalarning ta’limga integratsiyasi, o‘quvchilarni o‘qitish va o‘qish jarayonini boshqarishda yangi yondashuvlarni yaratishga yordam

beradi. Ta’lim sifatini nazorat qilish uchun raqamli texnologiyalarning integratsiyasi quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- ❖ *Onlayn baholash tizimlari:* O‘quvchilarning bilimini baholashda yangi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari yaratildi. Masalan, onlayn testlar, interfaol darslar, va shaxsiylashtirilgan o‘quv platformalari yordamida ta’limning sifatini baholashda samarali tizimlar yaratiladi.
- ❖ *Elektron darsliklar va resurslar:* Ta’limni samarali boshqarish va o‘quv jarayonini monitoring qilish uchun elektron darsliklar, video darslar, interfaol platformalar va simulyatsiyalar ishlatiladi. Bu texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning o‘rganish jarayoni o‘zgaradi va o‘quv materiallariga nisbatan qiziqish ortadi.
- ❖ *O‘quvchilarni real vaqtda kuzatish:* AKT yordamida o‘quvchilarning o‘qish jarayonini real vaqtda kuzatib borish, ularning bilim darajalarini baholash va o‘qituvchilarga kerakli ma’lumotlarni taqdim etish imkoniyatlari paydo bo‘ladi. Bu usul ta’lim sifatini oshirish va tizimdagi kamchiliklarni tezkorlik bilan aniqlash imkonini beradi.



Zamonaviy ta’limda innovatsion yechimlar va interfaol platformalar ta’limni samarali boshqarishda, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda va bilim olish jarayonini optimallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Bunday platformalar ta’lim muassasalarining barcha darajalarida mavjud bo‘lgan kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishda yordam beradi. Massiv ochiq onlayn kurslar (MOOC) va boshqa o‘quv platformalari ta’lim sifatini monitoring qilishda samarali vosita bo‘lib, ta’limda innovatsion yechimlar yaratishda

muhim vosita sifatida ishlaydi. O‘quvchilarni baholash va ta’lim dasturlarini interfaol tarzda taqdim etish imkoniyatlarini yaratadi.

AKT yordamida o‘quvchilarga o‘zining ehtiyojlariga mos o‘quv dasturlari va materiallarini taqdim etish mumkin. Sun‘iy intellekt va moslashuvchan o‘qitish platformalari yordamida har bir o‘quvchining shaxsiylashtirilgan o‘quv kontenti yaratish imkoniyati mavjud. Bu ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi va o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini yaxshilaydi.

Ta’lim jarayonini interfaol tarzda tashkil etish o‘quvchilarning faolligini oshiradi. Masalan, virtual va kengaytirilgan reallik, simulyatsiyalar, va o‘quv gamifikatsiya metodlari orqali o‘quvchilar bilimlarni interaktiv tarzda o‘zlashtirishadi. O‘quvchilarni elektron baholash tizimlari orqali baholash, o‘quvchilarning bilim darajasini real vaqtda aniqlash va o‘quvchilarni muvaffaqiyatli tayyorlashga yordam beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim sifatini monitoring qilishda samarali vosita bo‘lib, ta’lim jarayonlarini interfaol va shaxsiylashtirilgan tarzda tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Elektron ta’lim platformalari, LMS tizimlari va innovatsion yondashuvlar ta’limni yanada sifatli, samarali va qiziqarli qilish imkonini yaratadi. Ta’lim tizimidagi raqamli texnologiyalar o‘quvchilar va o‘qituvchilarning ta’limga bo‘lgan yondashuvlarini yanada rivojlantirib, global ta’lim tizimi bilan raqobatbardoshlikni ta’minlaydi.



Raqamli texnologiyalar bugungi kunda ta’lim jarayonlarining ajralmas qismiga aylangan va o‘quv jarayonlarini samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynamoqda. So‘nggi yillarda, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi

ta’lim tizimiga yangi imkoniyatlar yaratib, innovatsion yechimlar yordamida o‘quvchilarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Xususan, shaxsiy kompyuterlar, planshetlar, smartfonlar va interaktiv doskalar ta’lim muhitida sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi. Ushbu texnologik yutuqlar raqamli ta’lim platformalari, ta’limni boshqarish tizimlari (LMS), til o‘rganish ilovalari, kengaytirilgan va virtual reallik vositalari hamda shaxsiylashtirilgan repetitorlik dasturlarini taqdim etishda muhim rol o‘ynamoqda. Bundan tashqari, sun‘iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi, shaxsiylashtirilgan ta’limni amalga oshirishda ko‘plab yangi imkoniyatlar yaratmoqda, bu esa o‘quvchilarga o‘z bilimlarini individual tarzda rivojlantirish imkonini beradi.

Ta’lim sifati monitoringi ta’lim tizimining samaradorligini baholash, o‘quvchilar va o‘qituvchilarning natijalarini tahlil qilish, ta’lim dasturlarining samaradorligini o‘lchash va ta’lim muassasasining faoliyatini baholash jarayonidir. Elektron monitoring modeli ta’lim sifatini nazorat qilishda raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarining integratsiyasini ta’minlaydi. Ushbu model yordamida ta’lim tizimi va ta’lim muassasalarining ishlashini real vaqtida baholash va tahlil qilish mumkin.

Elektron monitoring modeli ta’lim muassasalarining barcha faoliyatini boshqarish va baholash uchun elektron platformalardan foydalanishni nazarda tutadi. Bu platformalar ta’lim jarayonini to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazorat qilish, o‘quvchilarning bilim darajasini o‘lchash, o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini tahlil qilish va darslarni monitoring qilish imkonini beradi.

Masalan:

- ✓ *Ta’limni boshqarish tizimi (LMS):* O‘quvchilarni baholash, o‘qituvchilarning ish faoliyatini kuzatish, o‘quv dasturlarini tashkil etish va o‘quv materiallarini boshqarish uchun ishlatiladi.
- ✓ *Onlayn test va baholash platformalari:* O‘quvchilarning bilimlarini baholash va natijalarini tahlil qilish uchun testlar, so‘rovlар va anketalar elektron shaklda o‘tkaziladi.

Elektron monitoring modeli orqali ma'lumotlar tezda yig'iladi va samarali tahlil qilinadi. Bu jarayonda ta'lim muassasasining o'quvchilari va o'qituvchilari tomonidan berilgan ma'lumotlar to'plami, ularning bilim darajasi, yutuqlari, o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatlari va o'zlashtirish darajalarini o'lchash uchun ishlataladi.

Ma'lumotlar yig'ish vositalari:

- ✓ *Testlar va so'rovlari*: O'quvchilarning bilim darajasi va savodxonligini o'lchash uchun onlayn testlar va so'rovlari tashkil etiladi.
- ✓ *Interaktiv darslar*: O'quvchilarning interaktiv darslarda ishtirokini nazorat qilish va ulardan olingan natijalarni tahlil qilish imkonini beradi.

Elektron modelning eng muhim xususiyatlaridan biri bu real vaqtida monitoring imkoniyatidir. Bu o'quvchilarning, o'qituvchilarning va ta'lim muassasalarining faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Bu jarayon davomida o'quvchilarning yutuqlari, o'qituvchilarning pedagogik ishlari, ta'lim dasturlarining muvaffaqiyati haqidagi ma'lumotlar tezda yig'ilib, tahlil qilinadi.

Masalan;

- ✓ *O'quvchi baholash tizimi*: O'quvchilarni ta'lim jarayonida o'zlashtirgan bilimlarini onlayn tizim orqali baholash va natijalarni real vaqtida kuzatish.
- ✓ *Xodimlarning faoliyatini kuzatish*: O'qituvchilarning dars berish samaradorligini, o'quvchilar bilan muloqotini va ularning ta'lim jarayonidagi faoliyatini kuzatish.



Monitoring jarayonining yakuniy bosqichi xulosa chiqarish va hisobot tayyorlashdan iborat. Elektron model orqali yig'ilgan ma'lumotlar tahlil qilinib,

xulosa chiqariladi. Ta’lim muassasasining samaradorligini oshirish uchun kerakli tavsiyalar beriladi va hisobotlar tayyorlanadi. Bu hisobotlar ta’lim tizimini takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Masalan;

- ✓ *O‘quvchilarning muvaffaqiyatlari bo‘yicha hisobot*: O‘quvchilarning bilim darajasini va o‘qishdagi yutuqlarini tahlil qilish va hisobot shaklida taqdim etish.
- ✓ *O‘qituvchilarning faoliyati bo‘yicha xulosa*: O‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini baholash va ular uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

Elektron monitoring tizimi tez va samarali ma’lumot yig‘ish va tahlil qilish imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Real vaqt rejimida o‘quv jarayonini kuzatish imkoniyati ta’lim tizimidagi shaffoflikni ta’minlaydi. Ma’lumotlarning ochiqligi va aniq baholanishi tizimning samarali ishlashiga yordam beradi. Elektron tizim orqali o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va o‘rganish darajalarini tahlil qilish va shaxsiylashtirilgan ta’lim dasturlarini yaratish mumkin. Elektron monitoring tizimi xalqaro ta’lim tizimi bilan integratsiyalashish imkoniyatini yaratadi, bu esa o‘quvchilarga global miqyosda ta’lim olish imkoniyatini beradi.

Elektron monitoring modeli ta’lim sifatini nazorat qilishda juda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu model ta’lim tizimi samaradorligini oshirish, ta’lim muassasalarining faoliyatini baholash va o‘quvchilarning bilim darajasini real vaqtda kuzatib borish imkonini beradi. Elektron tizimlar ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi, shuningdek, global ta’lim tizimining zamonaviy talablari bilan moslashishga yordam beradi. Biroq, elektron monitoring tizimlarining muvaffaqiyatli ishlashi uchun texnologik infratuzilmani rivojlantirish va xodimlarni tayyorlash zarur.



Monitoring — bu ta’lim jarayonining samaradorligini kuzatish, baholash va kerakli o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tizimli faoliyatdir. Ta’lim sifatini monitoring qilish jarayonini samarali tashkil etish uchun aniq infratuzilma, dasturiy ta’minot va metodik yondashuvlar zarur. Bu jarayonni tashkil qilishning barcha bosqichlari o‘zaro bog‘langan bo‘lib, har biri ta’lim tizimining sifatini yaxshilash va monitoringning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Monitoringni samarali tashkil qilish uchun kuchli infratuzilma zarur. Infratuzilma ta’lim muassasalarining texnologik bazasini, inson resurslarini va moliyaviy ta’minotini o‘z ichiga oladi.

Bunda quyidagi elementlar muhim ahamiyatga ega:

Texnologik infratuzilma: Ta’lim tizimining monitoringini samarali tashkil etish uchun ta’lim muassasalari zamonaviy texnologiyalarga ega bo‘lishi kerak. Bu shaxsiy kompyuterlar, serverlar, internet tarmoqlari, mobil qurilmalar, interaktiv doskalar va boshqa texnik vositalarni o‘z ichiga oladi. Bu texnologiyalar yordamida o‘quv jarayonlarini kuzatish, tahlil qilish va baholash amalga oshiriladi.

Ma’lumotlar bazasi: Monitoring uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar yig‘iladi va markazlashgan ma’lumotlar bazasida saqlanadi. Bu ma’lumotlar o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ta’lim muassasalarining faoliyatini tahlil qilish uchun ishlatiladi. Yig‘ilgan ma’lumotlar real vaqt rejimida tahlil qilinadi va kerakli natijalar olinadi.

Inson resurslari: Monitoring tizimining samarali ishlashi uchun malakali mutaxassislar zarur. Ta’lim muassasasining xodimlari, o‘qituvchilar, pedagogik va texnik jamoalar monitoring tizimini ishlatish va natijalarini tahlil qilish uchun tayyor bo‘lishlari kerak.

Moliyaviy ta’minot: Monitoring tizimini yaratish va samarali ishlashi uchun tegishli moliyaviy resurslar zarur. Bu ta’lim muassasalarining texnik va metodik ta’minotini, o‘quv resurslarini va xodimlarni o‘qitishni ta’minlaydi.

Dasturiy ta’minot — ta’lim sifatini monitoring qilishda va natijalarni baholashda zarur bo‘lgan dasturiy vositalar, platformalar va ilovalarni o‘z ichiga oladi. Monitoringni tashkil etishda ishlatiladigan dasturiy ta’minotning asosiy vazifalari quyidagilardir:

Ta’limni boshqarish tizimi (LMS) - Ta’limni boshqarish tizimi o‘quvchilarning yutuqlarini, o‘qituvchilarning faoliyatini va o‘quv materiallarini real vaqtida boshqarish imkonini beradi. Bu tizimlar o‘quvchilarning bilim darajasini o‘lhash va natijalarni tahlil qilishda ishlatiladi.

